

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI

BULTUROV BOBURJON MAXAMADALIYEVICH

XIVA XONLIGINING DAVLAT MUASSASALARI FAOLIYATI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich

М У Н Д А Р И Ж А

KIRISH.....	3
 I BOB. O’RTA OSIYODA DAVLAT MUASSASALARI VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O’RNI.....	 7
1.1. O’zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi.....	7
1.2. Xiva xonligining tashkil topishi va davlat boshqaruvi.....	12
 II BOB. XIVA XONLIGI DAVLAT MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI.....	 23
2.1. Xiva xonligi saroy va xonlik boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari.....	23
2.2. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rasmiy faoliyat yuritgan davlat muassasalari.....	32
 XULOSA.....	 45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	47

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Tarix insoniyat hayotining shakllanishi, taraqqiy etib borishi va kelajak uchun zaruriy ehtiyojlarni yaratishga asos bo'lib xizmat qilishi bilan birgalikda o'tmish ajdodlarimizning bosib o'tgan turmush tarzini halollik, haqqoniylik hamda tanqidiy ruhda tahlil qilishni ham o'z zimmasiga yuklaydi¹.

Tarixni o'rganish, tarixiy voqealarni kelajak avlodga haqqoniy ochib berish haqida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida quyidagi fikrlarni bildirgan: “El yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutgan millatni kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan”.

Vatanimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin tarixiy haqiqatni mafkuraviy tazyiq va ta'sirlardan xoli tarzda, xolisona va haqqoniy, adolat va tarixiylik nuqtai nazaridan xalqimizga etkazish imkoniyati yuzaga keldi.

Mustabid sovet tuzumi davrida ko'plab muammolar qatorida millatlararo munosabatlarga ham haqqoniy yondashilmay, aksincha, bu masala faqatgina biryoqlama yoritildi. Xususan, Turkiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy munosabatlar tarixi soxtalashtirildi. Bunda asosan Rossiyaning Turkiston mintaqasidagi o'lka aholisining “asriy qoloqlik”dan “tarixiy taraqqiyot cho'qqisi”-ga olib chiqilgani ta'kidlandi. Bu munosabatlar haqida Prezidentimiz I.A.Karimov: ... Eng avvalo, mustamlakalar va yarim mustamlakalarni rivojlantirish yo'lidagi kuch-g'ayratlar buyuk davlatlarning kundalik va uzoq muddatli manfaatlariga bo'ysundirilgandi”², – degan edi.

¹ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. –Б.3.

² Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –Б.55-56.

1998 yili Islom Karimov bir guruh tarixchilar bilan uchrashar ekan, o'zbek davlatchiligi tarixini manbalar asosida jiddiy o'zrganishni muhim, dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida belgilab bergan³. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida"gi Qarorida⁴ mazkur ilmiy yo'nalish tarix fanining istiqbolli va dolzarb mavzui sifatida belgilandi hamda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bitiruv malakaviy ishi davriy chegarasi sifatida asosan Xiva xonligi deb atala boshlangan davrdan to tugatulgunga qadar bo'lgan davr – XVI asrning 70-yillari va XX asrning 20-yillari olingan.

Bitiruv malakaviy ishi o'rganganlik darajasi. Bu davrga oid manbalarni 3 qismga bo'lish mumkin. Rossiya bosqini davriga oid, sovet mustamlakasi davriga oid, mustaqillik davriga oid manbalar tashkil etadi. Xiva xonligi tarixini yoritish asosan o'tgan asrning 30-yillarida topilgan "XIX asr Xiva xonlarining arxivi"dan boshlangan. 1936-yil Rus tarixchisi P. P. Ivanov Leningrad(hozirgi Sankt-Peterburg)da M. E. Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limida Xiva xonlarining daftarlarini topishga muvaffaq bo'lgan. Bu ma'lumotlar Xiva xonligini tarixini yoritishga bag'ishlangan ishonchli arxiv xujjatlaridir. Shuningdek, A. L. Kun, V. V. Bartol'd, A. Yu. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, A. A. Semenov, Ya. G'. G'ulomov, M. Y. Yuldashev tomonidan turli tomonlari o'rganilgan.

XIX asrdan boshlab turli maqsadlarda Xiva xonligini o'rganish uchun harakat qilgan rus geograf, etnograf, tarixchi, rassom, harbiy topograf va sayyohlaridan N. I. Veselovskiy, V. V. Bartold, V. G. Tizengauzen, A. L. Kun, A. N. Samoylovich, M. I. Ivanin, M. N. Galkin, N. V. Xanikov, A. I. Levshin, V. V. Velyaminov-Zernov, N. S. Nikitin, A. V. Kaulbars kabi olim va o'lkashunoslar ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator nodir asarlar yaratdilar. Ayniqsa, professorlar V. V. Grigorev va N. I. Veselovskiy, akademik V. V. Bartold va V. G. Tizengauzen

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 5.

⁴Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон FA Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш" ҳақидаги Қарори // Халқ сўзи, 1998, 20 июль.

asarlarida X-XV asrlardagi Xorazm tarixini yorituvchi manbalarni va xorij sayyohlari esdaliklarini tanqidiy yoritishga intilish yaqqol sezilib turadi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan Xiva xonligi tarixiga oid ayrim ma'lumotlarni Xorazm tarixchilarining asarlaridan ham olish mumkin. Jumladan, A. Abdurasulov, K. Nurjonov, K. Xudoyberganov, D. Rahim va Sh. Matrasul, N. Qobulov, N. Polvonov, P. Yusupov, O. Qosimova, B. Mannonov, S. Hasaniy kabi olimlar asalarini⁵, "Xiva ming gumbaz shahri", Xivaning 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Xiva jahon madaniyati durdonasi", "Xorazm navozandalari", "Xorazmda bitilgan qo'lyozmalar"⁶ kabi risolalarni ham aytib o'tish lozim. Mazkur olimlarning asarlarida Xiva xonligi ijtimoiy – siyosiy hayoti, xonlarning shajaraviy tarixi, xonlikning XX asrning 20 yillaridagi hayoti, xonlikning tugatilishi, "Yosh xivaliklar" harakati hamda xonlikdagi madaniy rivojlanish, ya'ni Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin ham Xivada tarixnavislik, tarjima maktabi, kitob va kitobat san'ati, matbaa faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi XVI asrning 70-yillari va XX asrning 20-yillarida Xiva xonligidagi davlat muassasalari faoliyati yoritishdan iborat. Bu quyidagi vazifalar belgilangan:

- XVI asrning 70-yillari va XX asrning 20-yillari Xiva xonligidagi davlat muassasalarini faoliyati va strukturasini o'rganish;
- Xiva xonligidagi davlat muassasalarining Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi davlat muassasalari faoliyati bilan o'zaro solishtirish, taqqoslash;
- XVI asrning 70-yillari va XX asrning 20-yillari Xiva xonligidagi davlat muassasalarini faoliyatini arxiv manbalari orqali yoritib berish;

⁵ Qosimova O. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. – Тошкент, 1989; Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз - шох ва шоир қисмати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991; Қобулов Н. Хоразм адабий муҳити. – Урганч, 1992; Нуржонов К. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1992; Худойберганов К. Хива – 2500. Хива хонлари шажараси. – Хива, 1996; Маннонов Б. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташки сиёсати. – Тошкент: Фан, 1997; Ҳасаний С. Хоразм маърифати - олам кўзгуси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар.) – Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Қўшчанов О., Полвонов Н. Ўзбекистонда ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (Хоразм мисолида 1900-1924). – Тошкент: Университет, 2007; Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). – Урганч: Хоразм, 2000.

⁶ Хива минг гумбаз шаҳри. – Тошкент: Шарқ, 1997; Хива – 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. (Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган қўшма илмий-назарий анжуман материаллари). – Урганч, 1997; Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994; Хоразмда битилган қўлёзмалар. – Тошкент, 1997.

– bitiruv malakaviy ish yakuniga ko'ra zarur xulosalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning nutqlari, maqolalari, fundamental asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining mamlakatimiz tarixini o'rganish bilan bog'liq Qarorlari, taniqli o'lkashunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

Shuningdek, mustabid sovet davri va mustaqillik yillarida e'lon qilingan tarixiy-ilmiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, gazeta-jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Xiva xonligini davlat muassasalari tarixi bo'yicha ilmiy manba sifatida to'laroq tasavvur qilishga imkon beradi. Davlat muassasalari strukturasi, vazifalari va faoliyatlarini ўрганишга имкон беради.

Unda keltirilgan ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi, O'rta Osiyo va O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi, Xiva xonligi tarixi fanlarini o'qitishda, ushbu fanlardan o'quv-uslubiy majmualar yaratish, shuningdek, Arxivshunoslik va tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga seminar mashulotlariga tayyorlanishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Kirish, ikki bob, to'rt qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'RTA OSIYODA DAVLAT MUASSASALARI VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

1.1. O'zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yerlar va sug'orish kanallari bilan chegaralangan hududlarda paydo bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Dastlabki davlatlar miloddan avvalgi IV ming yillikda tashkil topgan bo'lib, ularda o'ziga xos davlat muassasalari tizimi ham shakllangan.

Davlat tushunchasi ilgari ma'lum bir hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda esa davlat tushunchasi mohiyati tubdan o'zgarib, u quyidagicha ta'riflanadi:

Davlat – suverenitetiga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquqiy normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti. Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot. U hokimiyatning bosh instituti bo'lib, jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etadi, yo'naltiradi va nazorat qiladi⁷.

Davlatning asosiy belgilari sifatida fuqarolarning ma'lum bir hududda birlashishini, boshqaruv apparatini mavjudligi, barcha uchun majburiy bo'lgan asosiy qonun va qonun osti huquqiy-me'yoriy hujjatlarga egaligi, ichki va tashqi siyosati hamda soliqlar tizimi shakllanganligini qayd etish joiz.

Jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlat shakllari ham o'zgarib borgan. Boshqaruv jihatidan davlat monarxiya va respublika, tuzilishiga ko'ra unitar (oddiy), federativ va konfederativ shaklda, siyosiy tartibi bo'yicha demokratiya, aksildemokratiya, fashistik va totalitar (mustabid)

⁷ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 445.

ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Birinchi bo‘lib demokratiya siyosiy tartibi Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi 594-yilda o‘rnatilgan bo‘lsa, respublika boshqaruv shakli Qadimgi Rimda miloddan avvalgi 509-yilda joriy etilgan.

Davlat ishlarini tartibga solish, ichki va tashqi aloqalarni boshqarib turish zaruriyati maxsus davlat muassasalarini tuzilishiga olib keldi. Ular turli tarixiy davrlarda, turli siyosiy vaziyat va qonuniyatlar ta’sirida o‘zgarib, rivojlanib bordi. O‘z xususiyatlariga ko‘ra davlat muassasalari mamlakatni boshqaruvchi, qonun chiqaravchi, ijro etuvchi va sud organlari vazifasini bajarib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda davlat muassasalari (idoralari) tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin. Davlat muassasasi – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o‘z tuzilishi, ijtimoiy hayotining muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo‘lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi.

Davlat muassasalarining asosiy belgilari sifatida ularni maxsus qonun chiqarish yo‘li bilan tashkil etilishini, unga yuklatilgan vazifalar doirasi mavjudligini, boshqaruv apparatida mustaqil o‘ringa ega bo‘lishini, boshqa idoralar bilan aloqalari va o‘ziga xos tuzilishga egaligini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston davlat muassasalarini vujudga kelishi masalasining o‘rganilishi tarixini yorituvchi bir qator ilmiy nashrlar mavjud bo‘lib, ular hozirda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1998-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan bir guruh tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvida o‘zbek xalqi tarixini har tomonlama tadqiq qilish, davlatchilik tarixining turli bosqichlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotini o‘rganish yuzasidan bir qator takliflar ham bildirgan edi. Shundan kelib chiqqan holda respublika kasb-hunar kollejlarning ish yuritish va arxivshunoslik ta’limi yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalariga O‘zbekiston davlat muassasalari tarixini o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Mazkur firkrimiz quyidagilar bilan asoslanadi:

1. Tashkilot, muassasa, idora va korxonalarda faoliyat olib borayotgan har qanday ish yurituvchi hujjat turi, uni rasmiylashtirish tartibi hamda ish yuritish

tizimini to'g'ri tashkil etish uchun muassasa tushunchasiga ega bo'lishi va ularni kelib chiqish tarixini yaxshi bilishi talab etiladi.

2. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda "Arxivlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Milliy Arxiv Fondi tashkil etildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi davlat va nodavlat arxiv fondlarini o'z ichiga oladi. Davlat arxiv fondi hujjatlar hajmi jihatidan katta qismni tashkil etishi va davlat muassasalari faoliyati natijasida mujassamlashganligini inobatga olgan holda ularning tarixini o'rganish muhim masalalardan biri sanaladi.

3. Davlat arxivlari ishini tashkil etishda, ya'ni ularni hujjatlar bilan butlash, hujjatlar qimmatdorligini ekspertiza qilish, tartibga solish va ulardan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanishni yo'lga qo'yishda O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondini butlash manbai hisoblangan davlat muassasalarini tuzilishi, vazifalari, faoliyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog'liq holda bo'lgan. Mamlakatning tabiiy iqlimi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanishga katta omil bo'lib xizmat qilgan. Dehqonchilik, hunarmandchik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shuningdek, kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar, harbiy to'qnashuvlar ta'sirida davlatlar vujudga kela boshlagan. Natijada yer maydonlariga bo'lgan munosabat, ayniqsa ularga egalik qilish udumlari asta-sekin o'zgarib borgan.

Ilk davlat uyushmalari O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, ya'ni VII-VI asrlarda tashkil topgan⁸. Davlatga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos davlat muassasalari tizimi joriy etilgan bo'lib, davlatchilikning dastlabki bosqichida davlat muassasalari vazifasini maxsus tayinlangan shaxslar amalga oshirgan. Yil sayin ko'payib borayotgan jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish va irrigatsiya (sug'orish) ishlarini yuritish, jamoaning ichki va tashqi ishlarini boshqarib turish

⁸ Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – B.8.

zaruriyati “qishloq hokimlari” deb nomlanuvchi oqsoqol (yoki dehqon)lar sinfmi shakllanishiga olib keldi. Ularning mol-mulkni himoya qiluvchi, dushmanlarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirish va tinch paytlarda qishloq aholisi ustidan hukmronlik qilish uchun 50-100 tadan ortiq o‘z askarlari bo‘lgan. Ma’lum bir hududda bir necha qishloqlar birlashib, tumanni hosil qilgan. Tumanni oqsoqollar kengashi boshqargan. Oqsoqollar kengashi esa viloyat yoki shahar hokimiga bo‘ysingan. Ba’zida esa viloyatlar biron-bir davlatga tobe bo‘lib, ularni mamlakat hokimi – podshoh boshqargan. Masalan, Ahamoniylar davlati (miloddan avvalgi VI asr o‘rtalari) tarkibiga Mrgan O‘zbekiston hududlari satrapliklar (viloyat)ga ajratilib, ularni satraplar boshqargan. Satrap etib urushda yaxshi xizmat ko‘rsatgan sarkardalar bilan birga mahalliy hokimlar ham tayinlangan.

Davlat rivojlanishi bilan uning vazifalari doirasi kengayib, natijada davlat muassasalari tizimi ham takomillashib borgan. Har bir davlatning boshqaruv idorasi, xodimlari, budjeti va muayyan ish yuritish tizimi mavjud bo‘lgan. Ahamoniylar davrida bo‘lgani kabi Salavkiylar (miloddan avvalgi 312-yil) hukmronligida ham ko‘pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo‘lgan. Ayrim manbalarda keltirilishicha, saroydagi xat-hujjat ishlarini boshqaruvchi maxsus lavozim joriy etilgan.

Mazkur davlatlar monarxiya shaklida boshqarilib, hukmdor qo‘lida qonun chiqaravchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mujassamlashgan. Ayrim hollarda uning vakolatlarini cheklab turuvchi davlat organi ta’sis etilib, mamlakatni boshqarish o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan. Xususan, miloddan avvalgi III asrning boshlarida tashkil topgan Qang‘ davlatini boshqarish shakliga ko‘ra cheklangan monarxiya deb atash mumkin. Chunki, mamlakatni boshqarishda podshohga Oqsoqollar kengashi (Oliy kengash) yordam bergan. Hattoki yangi hukmdorni taxtga o‘tqazish to‘g‘risidagi qaror Oqsoqollar kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Qadimgi Farg‘ona (Dovon mil. av. III asr) davlati oliy hukmdor – podshoh tomonidan boshqarilib, uning ikki yordamchisi – vazir (katta va kichik) bo‘lgan. Vazir etib podshohning yaqin kishilari yoki qarindoshlari tayinlangan. Qadimgi

Fargʻonada Qangʻ davlati kabi hukmdorlar boshqaruvda Oqsoqollar kengashiga tayangan⁹. Kengash mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etish bilan birga podshoh bilan bogʻliq rasmiy tadbirlarda ham ishtirok etgan. Kengash qarori bilan davlatning muhim masalalari, yaʼni urush eʼlon qilish, sulh tuzish, dip-lomatik munosabatlar oʻrnatish kabi masalalar hal etilgan. Oqsoqollar kengashi hukmdorni taxtga oʻtqazish va kerak hollarda taxtdan tushirish va jazolash vakolatiga ham ega boʻlgan. Masalan, xitoyliklar bosqini aybdori deb topilgan Fargʻona hukmdori Mugʻuy kengash qarori bilan qatl etilgani tarixiy manbalarda koʻrsatilib oʻtiladi.

Bundan tashqari davlat boshqaruvida diniy muassasalarning oʻrni ham beqiyos boʻlgan. Ibodatxonalar tasarrufida mulk va yerlar boʻlib, ularni diniy arboblari – koinlar boshqargan. Koinlar faoliyatini esa bosh ruhoniylar nazorat qilib turgan.

Umuman olganda, qadimgi davrlardayoq Oʻzbekiston hududida oʻziga xos davlat organlari taʼsis etilib, ular boshqaruv masalalarini tartibli ijro etishga yoʻnaltirilgan edi.

Mahalliy hukmdorlar ichida eng yirigi Samarqand ixshidlari boʻlib, ular Soʻgʻdning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta siyosiy nufuzga ega boʻlgan. Mazkur ittifoq tarkibiga Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan. Soʻgʻd shahar va qishloq aholisi - naf, mulkdorlar – ozodkor, savdogarlar – guvokor, dehqonlar – kashovarlar, xizmatkorlar – korikor, tobe dehqonlar – kadivar deb yuritilgan. Aslzodalar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar, yirik dehqonlar kirgan. Podshoh davlat bosh hukmdori sanalib, u umumdavlat mulkdan tashqari, oʻzining shaxsiy mulkiga ham ega boʻlgan¹⁰.

Jamiyatda dindor shaxslarning ahamiyati katta boʻlgan. Ular turli diniy marosimlar va udumlarni ado etish bilan bir qatorda, davlatni boshqarishda hukmdorlar ga oʻz yordamlarini berganlar. Diniy yerlarni vagʻnize, din peshvolarini vagʻnpat deb atashgan.

⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.102.

¹⁰ Сагдуллаев А., Аминов Б. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. –Б.72.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston xududida ilk davlat muassalari faoliyati asosan mahalliy va davlat mansablari bilan bog'liq xolatda yuritilganligini ko'rish mumkin.

1.2. Xiva xonligining tashkil topishi va davlat boshqaruvi.

Xiva xonligi amudaryoning quyi oqimidagi qadimiy Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo'lib, XVII asr boshlaridan mustaqil davlat sifatida boshqarilgan. Temuriylar davlati tarkibiga kirgan Xorazm vohasi 1505 yilda Shayboniyxon tomonidan bosib olingan bo'lsa, 1510-12 yillarda Eron shohi Ismoil Safaviy davlati tarkibiga qo'shib olindi. Lekin Xorazmda eronliklarga qarshi kuchli xalq harakati ko'tariladi. Xorazmning obro'li shayxlari Dashti qipchoqlik o'zbeklar yo'l boshchisi Elbarsxonga Xorazm taxtini taklif qiladilar. Elbarsxon qo'shinlari qisqa muddatda eronliklarni Xorazm vohasidan quvib chiqaradi. Elbarsxon (1712-1781) Xorazm poytaxti hisoblangan Urganch shahrini qo'lga kiritib, amalda xonlikka asos soladi. U tez orada xonlik hududini birmuncha kengaytiradi. Hozirgi Turkmanistonning janubiy qismini, Eronning shimolidagi Seraxs tumanini, Orolni va Mang'ishloqni egalladi. Vafotidan keyin uning vorislari hukmronlik qildilar. Xususan, XVI asrda Xorazmni uning avlodlaridan Berikach Sulton, Sultonhoji, So'fiyonxon, Sultong'ozi, Avanushxon, Qolxon, Aqatayxon, Do'stxon, Xojimxon, Nurmuhammadxon kabi xonlar boshqarib turganlar. Shayboniy Ubaydullaxon 1537-1538 yillarda Xorazmga qisqa muddat o'z hukmronligini o'rnatishga erishgan bo'lsada, avanushxon vorislari tomonidan tezda Xorazm ozod etildi. XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon ikkinchi Xorazmni bo'ysundirish uchun harakat qildi. Bir necha marta harbiy yurishlardan so'ng 1593 yilda Xorazm ham Buxoro xonligi tarkibiga qo'shildi. Lekin, Abdullaxon ikkinchining vafotidan keyin Xorazm yana mustaqil davlatga aylandi.

XVI asrning 70-yillarida Xorazm poytaxti Urganchdan Xivaga ko'chiriladi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng bu davlat poytaxt nomi bilan Xiva xonligi deb atala boshlagan¹¹.

¹¹ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2005. –Б.167.

XVII asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo'lgan kurashlardan so'ng Arab Muhammadxon (1602-1623) taxtga o'tirdi. Lekin ko'p o'tmay, uning o'g'illari Habash va Elbars o'z otasiga qarshi hokimiyat uchun kurash boshlaydilar va uni taxtdan ag'darib, avval ko'ziga mil tortadilar, so'ngra Xivada qatl etadilar. Shu tariqa taxtga Elbars o'tiradi. Qisqa hukmronlikdan so'ng u ham ukasi Isfandiyor tomonidan taxtdan tushiriladi. Isfandiyor hukmronligi davrida (1623-1643) Xiva xonligida siyosiy vaziyat keskinligicha qoldi. Ayniqsa, Amudaryoning quytsi oqimidagi Orol hokimligi markaziy hokimiyatga bo'ysunmadi. Shuningdek, turkman qabilalarining ham xonga ta'siri katta edi. Ular yordamida Isfandiyorxon o'zbek qabilalari vakillarini davlat boshqaruvidan chetlashtira boshlaydi.

Isfandiyor o'limidan so'ng Xiva taxtiga o'tirgan Abulg'ozixon Xorazm tarixida muhim o'rin tutdi. U 1643 yilda Orol o'zbeklari yordamida Xiva taxtini egallaydi. Uning hukmronlik davri (1643-1663) da markaziy davlat hokimiyati birmuncha mustahkamlandi. Ko'chmanchi turkman qabilalari va qalmiqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashlar olib borildi. Uning davrida Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari olib borildi. 1662 yilda tuzilgan o'zapro sulhga qaramay, ikki xonlik o'rtasidagi nizoli vaziyat keyingi yillarda ham saqlanib qoldi. Abulg'ozixon og'ir dardga chalingani uchun 1663 yilda o'z ixtiyori bilan taxtdan voz kechadi.

Uning vorisi Anushaxon hukmronligi davrida (1663-1687) Xiva qo'shinlari Buxoroga, Samarqandga, Qarshiga yana hujumlar qilib turdilar. Buxoroning yangi xoni Subxonqulixon nafaqat xivaliklar hujumini to'xtatishga, balki Xivada o'z ta'sirini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Uning yordamida Anushaxonning o'g'li Ernak 1687 yilda Xivada hokimiyatni egallash uchun fitna uyushtiradi. Lekin o'z otasi Anushaxonni ko'r qilib taxtni egallagan Ernak hokimiyatni uzoq saqlab qola olmadi. Subxonqulixon 1688 yilda Xiva taxtiga Shohniyozni (1688-1707) o'tqazib, Xivani amalda Buxoroga vassal davlatga aylantirdi.

Ammo bu siyosiy qaramlik uzoq davom etmadi. Shohniyoz Rossiya hukmdori Pyotr birinchiga xat yo'llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo'shib olishni so'raydi. 1703 yilda Pyotr birinchining Xiva Rossiya tarkibiga qo'shib olinganligi

haqidagi yorlig'i Xivaning yangi xoni Arab Muhammadga (1707-1714) topshirildi. Lekin Xivani o'ziga tobe etish Rossiyaga nasib etmadi. Arab Muhammad va uning vorisi Sherg'ozixon hukmronligi davrida (1715-1728) xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakat iqtisodini ham izdan chiqardi. Bu vaziyatda Pyotr 1 tomonidan uyushtirilgan Bekovich-Cherkasskiy rahbarligidagi 6 ming kishilik ekspeditsiya xonlikka kirib keldi. Lekin bu qo'shin xivaliklar tomonidan butunlay qirib tashlanadi.

Tashqi dushman bartaraf etilganiga qaramay, xonlikda ichki nizolar davom etardi. Buxoro xoni Abulfayzxon Xivadagi markaziy hokimiyatga qarshi chiqayotgan Orol hokimlarini qo'llab-quvvatlab turdi. O'zaro urushlar Sherg'ozixon o'limigacha davom etdi. Elbarsxon davrida (1728-1740) o'zaro nizolar birmuncha susaydi. Uning davrida Xiva qo'shinlari Xuroson erlariga harbiy yurishlar uyushtirib katta o'lja va asirlar bilan qaytdi. Bunga javoban Eron shohi Nodirshoh Xorazmga qarshi hujum uyushtirdi. Bo'lib o'tgan janglarda g'alaba qilgan eronliklar 1740 yilda Xiva xoni Elbarsxonni o'ldirib, Xorazmni butunlay bo'ysundirdilar. Shundan so'ng Xorazmda siyosiy parokandalik boshlandi. Xiva taxtida kichik qozoq juzidan bo'lgan Abulxayrxonning qisqa hukmronligidan so'ng Nodirshoh Xorazmga ikkinchi marta yurish qilib, Xivani egallaydi. Xiva Nodirshohning noibi tomonidan boshqarila boshlandi. 1741 yilda Xivada qo'zg'olon ko'tarilib, eronlik noib o'ldiriladi va eronliklar qo'shini qirib tashlandi. Taxtga Nurolixon o'tiradi. Lekin eronliklarning yangi qo'shini Xorazmga kirib kelishi bilan u Dashti Qipchoqqa qochib ketadi. Shundan so'ng Xiva taxtida xonlar tez-tez almashib turdi. 1747 yilda qozoq sultoni Taibxon taxtga o'tiradi (1747-1757). Lekin uning boshqaruvidan norozilik kelib chiqadi va yana qo'zg'olon ko'tariladi. Xon taxtni tashlab qozoq dashtlariga qochib ketganidan keyin hokimiyatni uning ukasi Abdullaxon (1757-1758) egallaydi.

Xivada ko'tarilgan navbatdagi qo'zg'olondan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahim Xiva taxtiga o'z odami Temur G'ozixonni o'tqazadi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida o'zbeklarning Qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan inoqlarning hokimiyatdagi ta'siri ortib bordi. 1763 yilda Inoq Muhammad Amin

amalda Xivadagi birinchi darajali hukmdorga aylandi. U 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda buxoroliklar tajovuzini bart araf etib markaziy hokimiyatni birmuncha mustahkamladi. Mahalliy hokimlar beboshligia chek qo'yildi, mamlakat iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Xunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq rivojlana boshladi.

XIX asr boshlariga kelib inoqlar faqat amalda emas, balki rasman ham Xiva taxtini egalladilar. Eltuzarxon Inoq (1804-1806) Xiva taxtiga o'tirgan qo'ng'irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi¹². Uning vorisi Muhammad Rahim 1 (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Uning davrida bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Xon saroyi qoshida Kengash (devon) ta'sis etildi. Islohotlar o'tkazilib, soliqlar tartibga solindi. Ichki muomala uchun oltin va kumush tangalar zarb etildi. 1811 yilda orolliklar – qoraqalpoqlar Xiva tarkibiga qo'shildi.

Muhammad Rahimning vorislari Olloqulixon davrida (1825-18420) va muhammad Aminxon davrida (1845-1855) xivaliklarning Xurosonga talonchilik yurishlari birmuncha kuchaydi. Buxoro bilan Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi. 1855 yilda Seraxsni qamal qilish chog'ida Muhammad Rahim vafot etdi va Xiva taxtiga Abdullaxon o'tqazildi. 6 oydan so'ng u turkmanlar bilan bo'lgan jangda o'ldirilgach, taxtni Qutlug'murodxon egalladi¹³. Xiva xonligida siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. O'zaro sulolaviy va qabilaviy nizolar avj oldi.

1859 yilda Xiva taxtiga Said Muhammad Rahim II (1865-1910) o'tirdi. "Feruz" taxallusi bilan irod qilgan bu hukmdor amalda Xivaning so'nggi mustaqil xoni bo'lib tarixga kirdi. Uning davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi yuz berdi. Lekin, 1873 yilda Xiva rus qo'shinlari tomonidan bosib olindi va xonlik Rossiyaga qaram davlatga aylandi.

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo'lib, uning boshqaruv tizimi Buxoro va

¹² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.389.

¹³ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 547.

Qo'qon xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Buxoro va Qo'qon xonligidan farqli ravishda XIX asr boshlariga kelib xon xuzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining va mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur. Ular amalda davlat boshqaruvida katta kuchga ega bo'lganlar. Ayniqsa, markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan davrda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Xonlikdagi barcha mansab va unvonlarni 3 toifaga: harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy amallarga bo'lish mumkin. Saroy unvonlari ichida xondan keyin eng katta nufuzga inoq, otaliq va biy unvonidagilar mansub bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy hayotini nazorat qilgan. Xonlikning siyosiy-iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, bekларbegi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutgan. Diniy hokimiyat shayxulislom boshliq din peshvolari qo'lida edi.

Xiva xonligida davlat tili o'zbek tili bo'lib, Buxoro va Qo'qon davlatlaridan farqli ravishda bu erda ikki tillilik hukmron emas edi. Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o'zbek tilida yozilar edi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI-XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy birlik bekliklar deb yuritila boshladi. Bu davrda xonlikda 16 ta beklik va 2 ta noiblik mavjud edi¹⁴. Ular: Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'xna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shobboz, Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Sho'manoy, Qo'ng'iro't bekliklari va Beshariq, Qiyot-qo'ng'iro't noibliklaridir. Bu bekliklar va noibliklarni xon tayinlaydigan

¹⁴ Шерипов У. А. Хива хонлиги тарихи. (1511-1920 йй). Тарих фан. ном. дисс. – Урганч, 1999. –Б. 104.

beklar va noiblar boshqarar edi. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq)ning izmida bo'lgan. Umuman, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan edi¹⁵.

Xonlikda o'troq dehqonchilik tumanlarida asosan o'zbeklar yashar edi va ular ko'pchilikni tashkil qilgan. Shuningdek, xonlik hududlarida turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va kam miqdorda tojiklar, eronliklar, yahudiylar, armanlar ham istiqomat qilganlar.

O'rta Osiyo davlatlari ichida Xiva xonligi qo'shni mamlakatlarga tez-tez talonchilik yurishlari uyushtirib turuvchi davlat sifatida ma'lum edi. Xonlikda eng oliy bosh qo'mondon xon bo'lgan. Xondan keyingi mavqeda turuvchi inoq ham o'z hizmat vazifasiga ko'ra harbiy-ma'muriy amaldorlarga yetakchilik qilardi. Undan keyingi harbiy mansabdor amir ul-umaro bo'lib, qo'shinlar boshlig'i sarkarda deb atalar edi. Xonning shahsiy gvardiyasi boshlig'iga yasovulboshi unvoni berilgan bo'lib, u xonni qo'riqlash, tartib-intizomni saqlashga mas'ul bo'lgan. Qo'shinlar otliq va piyoda navkarlardan tashkil topgan. Xonlikda yollangan turkman sarbozlari, turli o'zbek qabilalaridan tuzilgan qo'shinlar asosiy kuch edi. Asosiy hujum qurollari o'q-yoy, qilich va nayza bo'lgan. Qo'shinning miltiq bilan ta'minlanishi past darajada edi. Zambaraklar ham xonlikda keng tarqalmagan edi. Jang olib borish usuli Chingizxon va Amir Temur davridagi harbiy qonun-qoidalariga asoslansada, ammo bu harbiy tartiblar ijodiy rivojlantirilmadi.

Xonlikda asosiy sudlov idoralari qozilik mahkamalari hisoblangan. Bu mahkamalar bir necha pog'onadan tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoiy ishlarni shaxsan u ko'rardi. Undan keyingi o'rinda xonlikda bosh sudya qozikalon bo'lgan. Bundan tashqari, har bir viloyat tuman va qasabalarda xon tomonidan tayinlangan qozilar faoliyat olib borgan.

¹⁵ Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов К., Холбоев С., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 235.

Xonlikda davlat yerlari, vaqf er egaligi va hususiy er mulklari mavjud edi. Davlat xazinasiga xonning shaxsiy mulki sifatida qaralgan. Vaqf erlariga odatdagidek madrasalar va diniy mahkamalar, masjidlar, qabristonlar harajatlari uchun ajratilgan yer-mulklar kirgan. Xususiy shaxslarga tegishli yer mulklar ichida yirik mansabdor va harbiylarga tegishli yerlar katta miqdorni tashkil etgan. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar dehqonlarga odatda 8-12 tanob qilib bo'lib berilgan. Dehqon bu yerda o'z oila a'zolari bilan birga ishlagan.

Voha iqtisodining asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil qilgan. Dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan Pitnak kanali, Polvon kanali, Qazovot kanali, Shohboz kanali, Yarmish kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Qorako'z kanali, Arna kanali, Bo'zsuv kanali, Suvvoli, Xon kanallari muhim o'rin tutgan. Xonlikda suv manbalarining yetarli bo'lishiga qaramay, dehqonchilik taraqqiyoti Buxoro xonligidagidek emas edi. Dehqonchilikda asosan, g'alla ekinlari yetishtirilgan. Paxtachilik esa asosan, Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa, Shohabbosda rivojlangan edi. Paxta chigitidan yog' olinar, tolasi mahalliy hunarmandlar ehtiyojiga va tashqi bozorga chiqarilardi. Xonlikda bog'dorchilik va polizchilik ham ancha taraqqiy etgan edi. Lekin, ipakchilik unchalik rivojlanmagan edi. Xiva xonligida chorvachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Xonlikning hunarmandchilik markazlari sifatida asosan yirik shaharlar – poytaxt Xiva, Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Xonqa va boshqa shaharlar muhim o'rin tutgan. Mahalliy xomashyo manbalari (jun, teri, ipak, paxta va boshqalar) va boshqa mahsulotlar Xorazm voxasi hunarmandchiligi taraqqiyotini belgilab turgan. Xonlikda to'qimachilik, kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik, duradgorlik, ko'ncilik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash bilan bog'liq xunarlar keng rivoj topgan edi. Mahalliy hunarmandlar mahsulotlari ichki bozor ehtiyojini ta'minlab qolmasdan ba'zi mahsulotlar qo'shni Buxoro, Qo'qon xonliklariga ham chiqarilgani ma'lum.

Savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosini tashkil etardi. Geografik jihatdan qulay hududda, yirik karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Xorazm vohasi

qadim davrlardan beri davom etib kelayotgan tijoratchilik an'analariga sodiq yurtdir. Bu xonlikda ham ichki va tashqi savdo ancha rivojlangan edi. O'zaro nizolarga qaramasdan xonlik viloyatlari, shahar va tumanlari o'rtasida yaqin iqtisodiy savdo aloqalari mavjud edi. Ichki savdoda asosan mahalliy mahsulotlar katta o'rin tutgan. Xonlikdan chetga chiqariladigan mahsulotlar ichida xivalik hunarmandlarning nafis buyumlarini, turli dehqonchilik mahsulotlarini aytib o'tish mumkin. Rossiyadan qo'rg'oshin, mis, temir, cho'yan kabi turli metallar, Buxoro, Qo'qon, Eron, Rossiyadan oltin, kumush, hunarmandchilik hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari keltirilgan.

Xivalik savdogarlar tranzit savdo aloqalarida ham faol ishtirok etishardi. Xonlik hududi orqali o'tuvchi savdo karvonlari (Rossiya, Buxoro savdogarlari) dan olinadigan boj to'lovlari ham saroy xazinasiga katta daromad keltirgan.

Xonlikdagi soliqlar asosan, xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi barcha qo'shni musulmon davlatlariga xos bo'lgan soliqlar undirib olingan. Ularning miqdori shariatda belgilanganidek bo'lgan. Soliqlardan tashqari aholi turli majburiyatlarni ham bajarishi lozim edi. Xususan, kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda o'z eriga ega bo'lgan har bir xonadaondan bir kishi jalb etilib, 15 kun ishlab berishi shart bo'lgan.

Xiva xonligi madaniyati ko'pgina o'ziga xosliklarga ega. Bu adabiyot, tarixnavislik, me'mochilik va madaniyatning boshqa sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xiva xonligida ham asosiy ilm dargohlari madrasalar edi. Quyi ta'lim, ya'ni boshlang'ich maktablarda savodini chiqargan kishilar xonlik poytaxti Xivadagi madrasalarda, shuningdek, Buxoro madrasalarida o'qib ta'lim olardilar. Manbalarning guvohlik berishicha, XIX asrda xonlikda 1500ga yaqin boshlang'ich maktab va 130 ta madrasa bo'lgan. Xususan, Xivada 22 ta madrasa bo'lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg'ozixon, Rahmonberdiboy, Olloqulixon, Xoja Mahram, Fozilbek, Davlat Qorako'z, Bekniyoz Devonbegi madrasalari katta mavqega ega edi¹⁶.

¹⁶ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2005. –Б.176.

Xorazm madaniyatining eng rivojlangan davri XIX asrga to'g'ri keladi. Bu davrda adabiyot, tarixnavislik va xattotlik, musiqa san'ati, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Adabiyot sohasida Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) badiiy merosi katta o'rin tutadi¹⁷. Shuningdek, shoir, musiqashunos, xattot va taniqli naqqosh Komil Xorazmiy (1825-1899) o'z o'rniga egadir. Xorazm muhitida yaratilgan tarixiy asarlar orasida Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asari yetakchi o'rin egallaydi. Ogahiy tomonidan yaratilgan "Zubdat ut-tavorix", "Riyozi ud-davla", "Jomiy' ul-voqeoti sultoni" kabi tarixiy asarlar ham Xorazm tarixnavislik maktabining nodir namunalari. Xiva xonligining tarixiga bag'ishlangan asarlar ichida Muhammad Yusuf Bayoniy (1859-1923) ning "Shajarayi Xoramshohiy" asari katta o'rin tutadi¹⁸.

Xiva xonligidagi me'morchilik avvalo, shaharlar rivoji bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib bordi. Xiva eng katta shahar bo'lib, u 3 qismdan: xon qarorgohi, saroy (Ichonqal'a, Dishonqal'a), bevosita shahar va shahar atrofi – rabotdan iborat edi. Shaharda XIX asr boshlarida 22 ta madrasa, 17 ta masjid, bir necha karvonsaroy, hammom va yopiq bozorlar mavjud bo'lgan. Xazorasp, Gurlan, Urganch, Toshxovuz, Vazir, Shohabbos, Xonqa, Xo'jayli, Qo'ng'iro't kabi o'rta kattalikdagi shaharlar, Pitnak, G'azovot, Mang'it va boshqa kichik shaharlar bor edi. Xorazm O'rta Osiyoda o'ziga xos uslubga, o'z me'morchilik maktabiga ega bo'lgan vohadir. Buni Xivada va xonlikning boshqa shaharlarida XVI-XIX asrlarda qurilgan ko'plab inshootlarida ko'ramiz. Xivadagi me'moriy obidalar ichida 1616 yilda barpo etilgan Arab Muhammad madrasasi, Anushaxon tomonidan qurilgan masjid va hammomlarni (XVII asr oxiri), 1719 yilda qurilgan Sherg'ozixon madrasasini va boshqa binolarni misol qilish mumkin. Ular Xiva me'morchilik maktabining birinchi davriga xosdir.

Xiva me'morchiligining eng rivojlangan davri XIX asrga to'g'ri keladi. Bu davr inshootlari ichida Eltuzarxon tomonidan XIX asr boshlarida qurilgan

¹⁷ Шерипов У. А. Хива хонлиги тарихи. (1511-1920 йй). Тарих фан. ном. дисс. – Урганч, 1999. – Б.127.

¹⁸ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2005. – Б.172.

Ko'rinishxona binosini, Olloqulixon davrida qurilgan Toshxovlini (1832), Said biy masjidini (1835), madrasani, karvonsaroy va bozorni, Muhammad Rahim birinchi davrida barpo etilgan Polvon darvozani, Muhammad Aminxon madrasasini, Polvon ota masjidini (1811) va boshqa inshootlarni aytib o'tish mumkin.

Xiva xonlari (Shayboniylar)

1. Arab Muhammadxon – 1602-1623 yillar.
2. Isfandiyor – 1623-1643 yillar.
3. Abulg'ozixon – 1643-1663 yillar.
4. Anushaxon – 1663-1687 yillar.
5. Ernak (Ereng) – 1687-1688 yillar.
6. Shohniyoz – 1688-1702 yillar.
7. Arab Muhammad – 1702-1714 yillar.
8. Sherg'ozixon – 1715-1728 yillar.
9. Elbarsxon – 1728-1740 yillar.
10. Nodirshoh (Eron hukmdori) – 1740-1747 yillar.
11. G'oyibxon (Taibxon) – 1747-1757 yillar.
12. Abdullaxon – 1757-1758 yillar.
13. Temur G'ozixon – 1758-1763 yillar.
14. Abulg'ozixon – 1763-1804 yillar (amalda Inoq Muhammad Amin – 1763-1790 yillar; Avaz Inoq – 1790-1804 yillar)

Qo'ng'irotlar sulolasi hukmdorlari

1. Eltuzarxon – 1804-1806 yillar.
2. Muhammad Rahim 1 – 1806-1825 yillar.
3. Olloqulixon – 1825-1842 yillar.
4. Rahimqulixon – 1842-1845 yillar.
5. Muhammad Aminxon – 1845-1855 yillar.
6. Abdullaxon – 1855-1856 yillar.
7. Qutlimurodxon – 1856 yil (6 oy xonlik qilgan)
8. Said Muhammadxon – 1856-1865 yillar.
9. Muhammad Rahim II – 1865-1910 yillar.

10. Asfandiyor – 1910-1918 yillar.

11. Said Abdullaxon – 1918-1920 yillar (amalda Junaidxon)

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xududida ilk davlat uyushmalari qadimgi davrda ham faoliyat yuritganligini, davrlar o'tishi bilan bu muassasalar o'zining faoliyatini kengaytirgani va alohida sohalarga ajralganligini, Xiva xonligi tashkil topishi va faoliyatida ham davlat muassasalari o'rni muhimligini ko'rish mumkin.

II BOB. XIVA XONLIGI DAVLAT MUASSASALARINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI

2.1. Xiva xonligi saroy va xonlik boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari

Xiva xonligi boshqaruv tizimidagi davlat muassasalari, asosan, Buxoro va Qo'qon xonliklaridek bo'lib, farqi, XIX asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) bo'lgan¹⁹. Eng yuqori amaldorlardan tashkil topgan kengash vakolati cheklangan. Asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, amaldorlarning xonlik boshqaruvidagi mavqei baland edi. Mansab va unvonlar harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy toifalariga bo'linib, ular davlat muassasalari sifatida qarash mumkin. Inoq, otaliq, biy, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o'rin tutgan. Xonlik sud ishlari, asosan, diniy ulamolar qo'lida bo'lib, ularning mamlakat hayotida ta'siri kuchli bo'lgan.

Amir ul-umaro (arabcha, amirlar amiri, oliy amir) – Xiva xonlari arxividan ma'lum bo'lishicha, saroyda unga xizmat qiluvchi maxsus xodimlar, chunonchi 35 farrosh, 80 xizmatkor, 4 sayis va 6 darvozabon bo'lgan. Saroy lavozimlari ichida Amir ul-Umaro Xiva xonligida naqibdan keyin kelgan va uning maoshi 500 tillani tashkil qilgan. Bundan tashqari bir necha viloyatning daromadlari Amir ul-umaro ixtiyoriga berilgan.

Bek – XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Xon va davlat arboblarning qarindoshlari, bolalariga beriladigan faxriy unvondir. Agar xonning o'g'li yoshligida to'ra deb atalsa, xonning aka-ukalarining o'g'li yoki boshqa ayonlarining bolalari bek deb atalgan. Beklar xonning har xil topshiriqlarini bajarar va urush safarlariga chiqar edilar.

Beklarbegi – Xiva xonligida Qoraqalpoq va boshqa ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Ularning vazifasi o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'riligini tekshirib turish va ularni to'la

¹⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.395.

ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdir.

Biy – Xiva xonligida otaliqlarlan keyin keladigan mansab. Abulg'oziy Bahodirxon davrida o'z yonidan biylarga to'rtta o'rin bergan. Biylar navkarlarga sarkardalik qilganlar. Bu mansab Buxoro xonligida xizmat pog'onasining 9-mansabi, amorat panoh unvoni bo'lgan. Bu unvonni olgan shaxs uni keyingi mansablarni egallaganda ham o'zida saqlab qolgan.

Chag'davul, changdovul (mo'g'ulcha, chag'daul, chag'duul) – qo'shinning ort (arergard) qismi qo'mondoni, otliq qorovul sardori hisoblangan. Chingiziylar, Temuriylar armiyasida qo'shinning ort-arergard qismi. Unga shahzodalar va tajribali lashkarboshilar qo'mondonlik qilgan. Buxoro xonligida harbiy mansablardan biri hisoblanib, qorovul, yo'lchi va josusdan yuqori turgan. Ayni paytda arergard qo'shinida xizmat qiluvchi askar ham chag'davul nomi bilan ifodalangan.

Cherik (sanskritcha, qo'shin, lashkar) – Xiva va Buxoro xonliklarida harbiy yurish vaqtida tuman, viloyat, o'lka va uluslardan oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin. Asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Cherikni belgilangan joy (miod eri)ga to'plash vazifasi oliy bosh qo'mondon ad'yutanti – tavochi zimmasiga yuklatilgan. Cherik o'nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. Buxoro xonligida nomuntazam qo'shin qora cherik deb nomlangan²⁰.

Devonbegi – Xiva xonligida devonbegi devon mahkamasi orqali zakot yig'ish va bozorlarda joy puli olish, to'plangan pullarning sarf-xarajat qilinishiga ham boshchilik qilgan Bosh devonbegidan tashqari yana 3 ta devonbegi bo'lib, ular viloyatlardagi bog' va dalalardan olingan hosilning hisobini olish, otlarga em-xashak olib berish va saroyning mayda-chuyda xo'jalik xarajatlarini ham boshqarishgan²¹. O'rta asrlarda Sharqdagi islom davlatlarida oliy saroy mansablaridan biri. Sug'orish, moliya, harbiy, aloqa, adliya ishlarni yurituvchi

²⁰ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.480.

²¹ Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Тошкент, 2005. –Б.178.

mahkama (devon) boshlig'i. Buxoro xonligida moliya va xo'jalik ishlarini olib boruvchi mansabdor hisoblangan.

Inoq (qadimgi turkiy runiy bitiklarida "ishonch" ma'nosida qayd etilgan) – Xiva xonligidagi yuqori ma'muriy mansab hisoblanib, xondan keyingi 2 rutba sanalgan va bu lavozimga xonning birodarlaridan biri tayinlangan. Abulg'oziy Bahodirxon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga 4 joy ajratgan. Bu imtiyoz 1873 yilgacha davom etgan. Inoqlardan biri xonning chap tomonida, amir ul-umarodan keyin o'tirgan va ulug' inoq deb atalgan. Yangi xon ko'tarish vaqtida inoqlar oq namatning to'rt burchidan ushlab, bo'lajak xonni 3 marta osmonga iring'itganlar, bu inoqlarning asosiy va faxriy burchi edi. Inoqlarning siyosiy mavqei nihoyatda baland bo'lib, XVIII asr oxirida hatto xon-likni ham idora qilganlar. Inoq huzurida qushbegi, mehtar (moliya ishlari boshlig'i) va otaliq (qo'shinlar qo'mondoni)dan iborat kengash bo'lgan hamda amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashgan. Inoqlar Xiva taxtiga Chingizxon avlodlarini o'tkazganlar, biroq ularning aksari qozoqlar va shuningdek, qo'shni davlatlardan kelgan kishilar bo'lib hech qaysi to'paga mansub emasdilar. Shuning uchun inoqlar o'zlarini boshda vaqtincha, so'ng doimiy xon deb e'lon qilardilar. Yangi sulola asoschisi Muhammad Amin inoq qo'ng'irot urug'idan edi. Qo'ng'irot urug'i qiyot urug'i bilan birga ikkinchi o'zbek to'pasining boshida turar edi. Bu mansab Buxoro xonligida hukmdorning ishonchli kishisi, mansabdor. XVII-XVIII asrlarda xonlikda ulug' inoq va kichik inoq bo'lgan. Ulug' inoq darajasiga ko'ra, ko'kaltosh va ulug' qushbegi (qushbegi kalon)dan so'ng turgan. Ulug' inoq, asosan, hukmdor farmonlarini kichik mansabdagi amaldorlarga etkazish va amir qabuliga muyassar bo'lganlarni kiritish bilan shug'ullangan. Kichik inoq ham xonning ishonchli kishisi bo'lib, ba'zan saroydan otga mingan holda chiqish huquqiga ega bo'lgan. O'z lavozimiga ko'ra, ulug' mehtar, devoni sarkor va dasturxonchidan yuqori turgan. Kichik inoqqa hukmdorning muhrlari solingan qutichani ehtiyot qilish topshirilgan. Kichik inoq, shuningdek, amir nomiga tushgan ariza va shikoyatlarni qabul qilgan, elchilarni qabul qilish paytida ular keltirgan xatlarni ochib, amirning shaxsiy kotibi (munshiy)ga taqdim etgan.

Katovul – Xiva xonligidagi mansablardan biri. Qal’aning shikast-rextlari uchun javobgar bo’lgan shaxs. Buxoro amirligida ham katovul mansabining ma’nosi shunday bo’lgan.

Kengash (Devon) - Muhammad Rahim I davrida ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo’lgan urug’ oqsoqollari kengashi o’rnida ta’sis etilgan. “Muhammad Rahimxon o’z hokimiyatini adolat niqobi ostiga yashirib, uni mustahkamlash uchun Oliy Kengash ta’sis etdi. Bu kengashga turli da’vo va jinoiy ishlarni ko’rish va qaror chiqarish huquqini berdi, to’g’rirog’i amr qildi”²². Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko’rsatgan. Eng yuqori amaldorlardan tashkil topgan kengash vakolati cheklangan. Chunki, Oliy Kengash oqsoqollaridan, ya’ni ma’lum mansab va unvon egalaridan iborat edi. Oliy Kengashga xonlik qiluvchi sulolaning qarindosh-urug’laridan bo’lgan mansabdor beklar, shuningdek, otaliq, inoq va biylar kirgan. Bu kengash faoliyati to’g’risida N. Muravev quyidagilarni yozgan: “Bu kengash har haftada juma kuni ko’rinish xonada to’planadi. Muzokaralar boshlanish oldidan xonning oldidan xonning mulozimlari hozir bo’lganlarga tovoqlarda osh tortadi. Hamma ovqat yeb to’ygandan keyin, maslahat boshlanadi”²³.

Oliy Kengash Xiva xonligida yagona fuqarolik va jinoiy ishlar sudi hisoblangan. Doimiy mustahkam qonunlar yo’qligi uchun ko’rilayotgan ishlar ba’zan kengashning xohishiga qarab, ba’zan esa xonning foydasiga hal qilingan. Manbalardan ko’rinishicha, kengash majlisi qarornoma tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Garchi, kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, biroq muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri, dastavval, xonning xohish va irodasiga bog’liq bo’lgan²⁴.

Mehtar (forscha, ulug’, janob) – Xiva xonliklarida davlat xazinachisi. Bu mansab Buxoro xonligida hukmdorga yaqin 4 davlat mansabdorlaridan ikkinchisi bo’lib, ba’zan u oliy farmonga muvofiq, saroyga otdan tushmagan holda kirishga haqli hisoblangan. Mehtar zimmasiga zakotdan, shuningdek, tovar, aqcha, don,

²² Йўлдошев М. Ё. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. –Б. 251.

²³ О’sha joyda.

²⁴ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б. 396.

chorva singari tushumlarning qonunga binoan, zarur o'rinlarda ishlatishni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Qo'qon xonligida ham davlat xazinachisi mansabi bo'lgan.

Mingboshi – harbiy ma'muriy mansab bo'lib, Xiva xonligini saroydagi eng kichik amaldori. Qo'qon xonligida xondan keyingi 2-oliy mansab. Asosan, harbiy ishlarga mutasaddilik qilgan. O'rta Osiyoning ruslar tomonidan bosib olinishi arafasida Toshkent, Oqmachit singari shahar hokimlari mingboshi deb atalgan. Keyinchalik mingboshi Toshkent dahalari boshliqlari. Daha mingboshisi aholi tomonidan saylanib, viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan. XIX asr oxiriga kelib mingboshi shaharda tijorat ishlarini nazorat qiluvchi kichik mansab egasiga aylangan²⁵.

Mirob – suv taqsimoti va sug'orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs. Xiva xonligida XVI-XVIII asrlarda bosh vazir (otaliq), davlat nazoratchisi (miroxur) kabi oliy mansabdor shaxslar xonlikning bosh mirobi unvoniga ega bo'lishgan. Bosh sug'orish tarmog'i – kanaldan asosiy sug'orish tarmoqlari (katta ariqlar)ga mirobboshi, katta ariqlardan qishloq ariqlariga ariq oqsoqoli (arbob), qishloq ariqlaridan shoh-ariq va dahanalarga qishloq mirobi (jo'ybonlar) suv taqsimotiga mas'ul bo'lgan. Miroblik avloddan-avlodga o'tgan. Mirobboshi xizmat haqi uchun davlat xazinasidan maosh olgan. Har yili kuzda shohariqlar miroblari dehqonlardan hosildan mahsulot hisobida 1-2 g'alvir g'alla (mirobona) undirar edi. Hozirgi magistral kanallar boshqarmalarida xo'jaliklarga suv taqsimotini nazorat qiluvchi gidrotexnik²⁶. Buxoro xonligida bosh vazir (otaliq), davlat nazoratchisi (miroxur) kabi oliy mansabdor shaxslar xonlikning bosh mirobi unvoniga ega bo'lishgan. Bosh sug'orish tarmog'i – kanaldan asosiy sug'orish tarmoqlari (katta ariqlar)ga mirobboshi, katta ariqlardan qishloq ariqlariga ariq oqsoqoli (arbob), qishloq ariqlaridan shoh-ariq va dahanalarga qishloq mirobi (jo'ybonlar) suv taqsimotiga mas'ul bo'lgan.

²⁵ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар лугати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.265.

²⁶ Муҳаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент, 1997. –Б.56.

Moliya-soliq boshqarmasi – Xiva xonligida faoliyat yuritgan. Unga uch kishi: mehtar, qushbegi va devonbegi boshchilik qilgan. Bunda: “Xon xazinasini mehtarining ixtiyorida bo’lib, daromad-buromadni hisobga olib boradi, elchilarni qabul qilish va ularni boqish ham uning ixtiyorida. Xon Xivadan safar qilgan mahallida xonlikni boshqarishni unga topshirib ketadi, ba’zan esa o’z hokimiyatini ham ishonib topshirib qo’yadi”. “Ikkinchi vazir bo’lgan qushbegi ham kengash a’zosidir. U, xon singari qiyot-qo’ng’irot urug’idandir. U da’voda, janjal ishlarida o’z qabiladonlarining vakili hisoblanadi, uni hamma hurmat qiladi. Uning vazifasi har jihatdan birinchi vazir vazifasiga o’xshash, u birinchi vazir yordamchisi hisoblanadi. Xonning katta amaldorlaridan uchinchi xo’jash mag’ram, deb ataladi”²⁷.

Mushrif (arabcha, boshqaruvchi) – XX asrning 50-yillariga qadar Xiva xonligida mol, mahsulot (natura) bilan yig’iladigan soliq boshqaruvchi amaldor hisoblangan. Bu mansab Somoniylar davrida saroy ish boshqaruvchisi (devoni Mushrif), Bayhaqiynnt ma’lumotiga ko’ra, G’aznaviylar davrida davlat nazoratchisidan tortib, alohida idora yoki muassasani tekshiruvchi oddiy nazoratchigacha bo’lgan turli darajadagi rasmiy mansabdor shaxs bo’lgan. Uning vazifasi ish yuritishni kuzatib borish va turli xildagi suiiste’mollarning oldini olish bo’lgan. Podshoh xonadoni a’zolari, amaldorlar va ayrim kishilarning orqasidan yashirin ravishda kuzatib yurish uchun tayinlangan maxfiy josus (xufiya) va xabarchi hisoblangan. Xorazmshohlar davlatida moliya-nazorat boshqarmasi (devon ul-ishraf)da xizmat qiluvchi amaldor, Buxoro xonligida xazinadan beriladigan sovg’a-salomlarni ajratuvchi, hisobga oluvchi amaldor, Mirza Bade’ Devonning “Majmaal-arqom” asarida aytilishicha, Buxoro amirligida oliy davlat nazoratchisi – Mushrifi kalon, amirning shaxsiy kotibi vazifalarini bajargan.

Naqib, naqibxo’ja (arabcha, boshliq, sardor, qabila boshlig’i, dohiy) – Xiva xonligidagi harbiy mansabdor. Sayyidlar va xo’jalar uchun yuqori faxriy unvon. Naqib o’zlarini Muhammad payg’ambarning avlodlaridan deb hisoblaydigan sayyidlar jamoalari rahbarlarining lavozimi. Hukmron doiralar Naqib orqali

²⁷ Йўлдошев М. Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. –Б. 259.

sayyidlar jamoalari bilan muomala qilganlar. Naqiblik lavozimi avloddan avlodga o'tgan. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lgan. Rasmiy qabul marosimlarda Naqib xonning so'l tomonida 1-o'rinda o'tirgan. Xon naqiblarga tayangan. Naqiblarning o'z navkarlari bo'lib, hamma harbiy safarlarda qatnashgan. Naqiblarning vazifasi urush safari vaqtida qo'shin tuzish, uni qurollantirish va joylashtirish mahoratiga ega bo'lgan, old va orqadagi, o'ng va so'l qanotdagi markaz va pistirmadagi askar holidan xabardor bo'lgan, o'z vazifasiga loyiq bo'lmagan kishini ma'lum vazifani bajarishga qo'ymagan. Xiva xonligida urush safarlari vaqtida Naqib shu vazifalarni bajargan. Xon "saylov"i vaqtida naqib ishtirok etgan. Naqiblar xazinadan ta'minlanib turilgan²⁸.

Parvonachi – hukmdor farmoni va buyruqlarini bituvchi kotib. Xiva xonligida qozi va inoqdan keyingi oliy darajadagi saroy mansabdori hisoblangan. Parvonachi mansabi saltanat uchun buyuk xizmatlari evaziga xon tomonidan in'om tarzida berilgan²⁹. Parvonachi vafotidan so'ng uning o'rniga to'g'ridan-to'g'ri farzandi tayinlangan, unga zardo'z liboslar, oltin pichoq va tulpor ot tuhfa kilingan. Buxoro xonligida parvonachi amirning tayanchi hisoblangan oliy lavozimlardan biri, otaliq hamda devonbegidan keyingi 3-mansabdor shaxs hisoblangan. Parvonachi amir tomonidan chiqarilgan yorliklarni arkoni davlat hamda beklarga taqdim etgan, ayni chog'da xonlikda yashovchi arablar ishi bilan shug'ullanish uchun mas'ul hisoblangan. Yuqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi taqdim etgan farmonni 3 kun mobaynida o'z sallasiga qistirib yurishi lozim bo'lgan. Amir qabulxonasida parvonachi uchun maxsus o'rindiqlik bo'lgan. Parvonachi ba'zan harbiy harakatlarda ishtirok etib, muayyan qismlarga qo'mondonlik qilgan. Qo'qon xonligida esa saroy mansabi bo'lgan. Parvonachilar viloyatni ham boshqarish huquqiga ega bo'lganlar. Macalan, 1844 yil Chust hokimi Rahmatulloh parvonachi edi.

Sarhang (forscha, qo'shin boshlig'i) – Xiva xonligida qal'alar atrofiga

²⁸ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар лугати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 292-293.

²⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.397.

dushman otliqlari yo'lini to'sish maqsadida yog'och qoziklar qoqilgan. Mazkur vazifani bajaruvchilarga rahbarlik qiluvchi shaxs sarkor deb atalgan. Xorazmshohlar davlatida 500 otliq askardan tashkil topgan harbiy guruh qo'mondoni. Sarkor saltanat oldidagi buyuk xizmatlari evaziga malik darajasiga ko'tarilishi hamda muayyan viloyatga hokimlik qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Usmonli turk imperiyasida sarkor o'z mavqeiga ko'ra bo'lukboshidan yuqori lavozim hisoblangan.

Sarkor (forscha, ishboshi, nazoratchi, boshkaruvchi) – Xiva xonligida zarur paytlarda harbiy harakatlarda ishtirok etgan va ko'p hollarda dushman mudofaa istexkomlari va qal'alari devorlari yonida barpo etiladigan sarkoblarni qurish, ular ustiga o't sochar qurol-to'pni olib chiqish ishlariga boshchilik qilgan. Temuriylar saltanatida qurilish va ommaviy hasharlarda ishboshi bo'lgan mansabdor. Qo'qon xonlari tarixiga oid arxiv hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, sarkor aholining turli qatlamlaridan soliq – xiroj undirish, muayyan shaxsni soliqdan ozod qilish, yuqori mansabdor tavsiyasiga yoki biror kishi arizasiga binoan, fuqarolarni yoxud askarlarni don-dun bilan ta'minlash vazifasini ham bajargan. Eronda mahalliy yer egalari ixtiyoridagi maxsus qurolli bo'linma boshlig'i bo'lsa, Turkiyada XVIII-XIX asrlarda oliy bosh qo'mondon hisoblangan. Hozirgi paytda ham xalq jonli so'zlashuv tilida hashar yo'li bilan ariq va zovurlar qazish, imorat qurish singari ishlarga boshchilik qiluvchi yoki to'y-ma'arakalarga bosh-qosh bo'luvchi shaxs ba'zan sarkor deb nomlanadi

Shig'ovul, shag'ovul – saroy man-sabi. Xiva xonligida mehtarning yordamchisi bo'lib, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan. Shig'ovullarning faoliyati “buxrilar” (ayg'oqchilar) faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Shig'ovullar mustaqil ravishda diplomatik muzokaralar olib borishmagan. Buxoro xonligida esa elchilarni xon qabuliga olib kiruvchi mansabdor shaxs hisoblanib, saroydagi qabul marosimlarini boshqargan va nazorat qilgan³⁰.

³⁰ Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошида Хива холигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2002. –Б.116.

Sipohsolor (forsa, qo'shin boshlovchi, lashkar etakchisi) – Xiva xonligida jami otliq va piyoda qo'shinga qo'mondonlik qilgan. Bu mansab Somoniylar saltanatida eng oliy harbiy unvon. U Nishopurdan Amudaryoning janubigacha Somoniylarga tegishli barcha erlarga hukmronlik qilgan Xuroson voliysiga berilgan.

To'qsabo (eski o'zbekcha, o'z tug'iga ega bo'lgan) – harbiy qism sarkardasi hisoblangan. Xiva xonligida to'qsaboshi, asosan, bir polkdan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni. Rutba jihatdan chor hukumati armiyasining polkovnik unvoniga teng kelgan. Bu mansab Buxoro amirligida eshikog'a boshi, chig'atoy begi singari mansablardan keyingi, miroxurdan oldingi rutba hisoblanib, uning egasi amir saroyiga otda kirish, lekin hukmdor qabulida o'tirish huquqiga ega bo'lmagan shaxsni anglatgan. Bu mansabdor idishlarga ovqat suzish, kosalarga ichimlik, qatiq, muzdek suv quyish, ularni xizmatkorlar orqali mashvarat yoki kengash ahliga etkazishga mas'ul hisoblangan. U, shuningdek, Harqonrud tumanini va u erda suv taqsimotini boshqargan. Qo'qon xonligida ham bir polkdan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni hisoblangan.

Vazir (arabcha, yuk ko'taruvchi) – Xiva xonligida vazir yuqori mansabdor shaxs sanalib, vazifasi soliq to'plash, qo'shni xonliklar bilan aloqa qilish, amaldorlarni tayinlashdan iborat bo'lgan. Bu lavozim o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i³¹. Vazirlar vaziri a'zam rahbarligida davlatni idora etish vazifalari bilan shug'ullangan. Vazirlar podshoh, xon viloyat hokimligiga tayinlagan shahzoda va xonzodalarning yordamchilari hisoblangan. Arab xalifaligida vazir lavozimini 1-bo'lib xalifa al-Mansur (754—775) joriy etgan. Somoniylar davrida 10 devon bo'lib, ularni xojayi buzurg, sohib barid, mushrif, vakil, muxtasib vazirlar boshqargan. Amir Temur va uning vorislari zamonida saltanatning markaziy ma'muriyatini bosh vazir – devonbegi boshliq etti vazirdan iborat arkoni davlat boshkargan. Ular: 1) mamlakat va ra'iyat ishlari, 2) harbiy ishlar, 3) tijorat, 4) moliya ishlari bo'yicha vazirlar sanalib, yana 3 nafar maxsus vazir chegara viloyatlari va tobe mamlakatlardagi

³¹ Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.91-92.

ishlarni nazorat qilib turgan. Mazkur yetti vazir devonbegiga bo'ysungan va ular bilan bamaslahat davlatning muhim moliyaviy ishlarini olib borishgan. Xo'jalik yoki boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qilib kelgan amaldorlarni sobiq sho'rolar davrida komissar, ministr, ana shu boshqaruv organini esa komissarlik, ministrlik so'zlari bilan atash rasm bo'lgan edi. Bu atamalar O'zbekistonda ham mustaqillik yillarigacha qo'llanib kelinib, keyin vazir, vazirlik istilohlari bilan almashtirildi.

Yasovulboshi – Xiva xonligida uning qo'lida mirshabxona, qamoqxonalar, shuningdek, xonni qo'riqlash ishlari bo'lgan. Maxfiy farmonlar ham yasovulboshi orqali o'tgan. Yasovulboshi ko'chmanchilardan tuzilgan askariy qismlarga qo'mondonlik qilgan. Yasovulboshi xonning farmoniga muvofiq askarni vaqtida urushga boshlab borishgan³². Har bir yasovulboshining bir necha yordamchisi bo'lib, ular yasovullar deb atalgan. Arznomani tekshirish uchun xondan farmon olgach, yasovulboshi o'z yordamchilaridan birini shikoyatchiga qo'shib, hodisa yuz bergan joyga jo'natgan. Tekshirish ishlari tamom bo'lgandan keyin, yasovulboshi saroydan boshlab bosilgan har bir tosh (18 chaqirim) masofa uchun arzhidan o'z foydasiga 3,5 tanga undirib olgan. Qadimda yasovulboshida uning unvonini ko'rsatadigan kumush qalpoqlik aso bo'lgan, XIX asr oxirlarida esa yasovulboshi kamariga pichoq taqqan.

2.2. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rasmiy faoliyat yuritgan davlat muassasalari

Xiva xonligidagi davlat muassasalari tarixiga nazar tashlanganda, eng birinchi galda markaziy boshqaruv sifatida Devon hokimiyati idoralarini aytib o'tish kerak. Markaziy boshqaruv, bevosita qonun va farmonlar chiqaruvchi, shuningdek, ijro etuvchi bosh idora bo'lib, uni xon boshqargan. Diniy hokimiyatga kiruvchi idoralar, bevosita ijro muassasalari hisoblanadi. Bunga misol tariqasida sudlov idoralarini aytish mumkin. Asosiy sudlov idoralari qozilik mahkamalari hisoblangan. Bu mahkamalar bir necha pog'onalardan tashkil topgan. Ham qonun

³² Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. –Б.398.

chiqaruvchi, ham ijro etuvchi oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoiy ishlarni shaxsan u ko'rib chiqib, hukm chiqarardi. Undan keyingi o'rinda bosh sudya – qozi kalon turardi. Xonlikdagi har bir viloyat, tuman, qasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari – muftiylar yordamida mulkchilik mojarolarini hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu singari ishlar bilan shug'ullanganlar. Viloyatlardagi jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda mahalliy hokimning ham ishtirok etish huquqi bor edi. Qishloqlardagi mayda mojarolar qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi.

Xiva xonligidagi muassasalar, asosan, mulkchilik shakllariga ko'ra bir-biridan farqlangan. Masalan, xonlikda yerga egaUkning quyidagi mulkchilik shakllari bo'lgan: davlat yerlari; vaqf yer egaligi; xususiy yer mulklari.

Ana shunga ko'ra, davlat idoralari, madrasalar va diniy mahkamalarga bo'lingan. Ilm beruvchi muassasa madrasalar bo'lgan.

Xonlikdagi iqtisodiy hayot tarzi tahlil etilganda, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, to'qimachilikni sanab o'tish mumkin. Ayniqsa, hunarmandchilik bu o'lkada o'z tarixiy ildizlariga ega soha hisoblangan. Xiva, Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Xonqa kabi shaharlar hunarmandchilik markazlari bo'lib, voha taraqqiyotini ta'minlagan. Bu tashqi va ichki savdoning ham rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazgan.

Xonlik davridagi asosiy davlat muassasalaridan biri soliq idoralarining faoliyatida ko'zga tashlanadi. Soliq yig'uvchi idoralar asosan xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi soliqlarni undirganlar. Shu bilan birga aholi hashar yoli orqali quyidagi majburiyatlarni ham bajargan: kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun ilk bahorda 15 kun ishlashga jalb etilgan.

Bundan tashqari, qazuv va kanallarni tozalash, shuningdek, sug'orish ishlari mutasaddisi sifatida xonlikda miroblik idoralari faoliyat ko'rsatgan.

Davlat ta'lim muassasalari sifatida madrasalar asosiy o'rinni egallaydi va ularning xarajatlari vaqf mulklari hisobidan qoplangan. Quyi ta'lim, ya'ni boshlang'ich maktabda xat-savod chiqarilgan, o'qish va yozishni o'rgangan Mshilar Xiva madrasalarida, shuningdek, Buxoro madrasalarida o'qiganlar.

Masalan, XIX asrda xonlikda 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab, 130 ta madrasa mavjud bo'lgan. Xivaning o'zida 22 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan.

Ruslar istilosiga qadar davlat boshqaruvi tizimi sifatida Xiva xonligi o'zbek davlatchiligi tarixini, jamiyat hayotidagi o'ziga xosliklarni o'rganish-da muhim o'rin tutadi.

Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng Xiva xonligidan ajratib olingan hududning bir qismida 1874-yilda - markazi Petroaleksandrovsk (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi tashkil qilinadi. Amudaryo bo'limi Chimboy va Sho'raxon uchastkalariga bo'linardi.

1874-yil 21-mayda Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha "Nizom" ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan bo'limni maxsus boshliq boshqarar edi. U Harbiy vazir, ichki ishlar vaziri va Turkiston general-gubernatori bilan oldindan kelishilgan taqdimnomaga ko'ra, Rossiya imperatori tomonidan lavozimga tayinlanar va bo'shatilar edi³³.

Amudaryo bo'limi boshlig'i qo'liga ma'muriy, politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat berilgandi. Shu bilan bir qatorda diplomatik vazifalarni ham bajarib, u Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblanardi.

Amir madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1870). Madrasaga salobatli peshtoq orqali kiriladi. Peshtokning ikki yonidagi ikki qavatli (hujralar oldidagi) ravoqli ayvonlar, bosh tarzining ikki burchagiga ishlangan guldasta binoga mahobatlilik baxsh etgan. Hovlida hujralarga tutashtirib yoni ochiq, tepasi gumbaz bilan berkitilgan masjid ayvoni qurilgan. Darsxona va masjid ham gumbaz bilan yopilgan, bosh tarzi bezaksiz nihoyasiga etkazilmay qolgan, hovli devorlari koshin bilan bezatilgan. Yirik o'quv dargohi hisoblangan.

Amir To'ra madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1870). Ichan qal'aning shimoliy qismida joylashgan. Muhammad Rahimxon II ning akasi Amir To'ra qurdirgan. Chortoq tarhli, peshtog'i mahobatli, ikki yon tomonida qo'shqavatli uch juft hujra bor. To'rt burchagidagi guldasta-minoralar parchin belbog'li, mavj usulida bezatilgan. Masjid va darsxonaning tuzilishi bir xil. Masjid

³³ Хоразм тарихи. 1- жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М. Матниёзов. – Урганч, 1997. – Б.116.

janubidagi ayvon gumbaz tomli, gumbaz osti toqilari olti qirrali, unga uch qator muqarnas ishlangan. Hovlining ikki yon tomoniga bir qavatli, oldi ravoqli ko'ndalang hujralar ishlangan. Hovli burchaklaridagi hujralarga dahlizdan kiriladi. Hujralar balxi gumbazli, darchalariga panjaralar o'rnatilgan. Uch gumbazli miyonsaroyning ikki yon tomonida darsxona bor. Amir To'ra madrasasi 1970 yilda ta'mirlangan, bosh tarzi oldiga savdo rastasi joylashtirilgan. Yirik o'quv dargohi hisoblangan.

Arzhovli – xonga arzga kelgan kishilar qabul qilingan joy. 1830-1838 yillar Xivada Olloqulixon buyrug'i bilan qurilgan Toshhovlining bir qismi. Hovlining ichki qismiga gir aylan-gan ayvonli boloxonalar solingan. Hovlining to'rida esa taxt uchun maxsus ayvon qurilgan. Arzhovli o'rtasida baland yumaloq supa bo'lib, yozda o'tov o'rnatilgan. Binoning koshin bilan qoplangan silliq devorlari turli rangdagi nafis naqshlar bilan bezatilgan.

Litografiya – Muhammad Rahimxon II Feruz tashabbusi bilan saroy kutubxonasida saqlanayotgan nodir qo'lyozma asarlarni kitob shaklida nashr qilish maqsadida 1874 yili Eronidan Xivaga olib kelindi. Eronlik maxsus matbaachi Ibrohim Sulton o'z ishining mutaxassisi sifatida litografiyada dastlabki ishlarni amalga oshirishga kirishgan va toshbosmada ilk bor matbaachilik qildi³⁴, bu sho'baning boshlig'i qilib saroy shoiri Tabibiy tayinlangan.

Ibrohim Sulton yangi tashkil etilgan toshbosmada bitta o'zi ishlashga qiyinchilik sezgach, Otajon Abdalovni shogirdlikka oladi. Dastlab, toshbosmada ba'zi hujjatlar chop etila boshlandi. Ibrohim Sulton bilan tuzilgan shartnoma muddati tugagach, u Eronga jo'nab ketdi va xonlik toshbosmasidagi barcha ishlar va bu ish ma'suliyati Otajon Abdalov zimmasiga yuklatildi. Otajon Abdalov bu ishning davomchisi sifatida xonlik kutubxonasidagi nodir kitoblarni mustaqil ravishda nashr qilishga kirishdi. Dastlab chop etilgan kitoblar savdoga chiqarilmay Xiva xoni kutubxonasiga sovg'a sifatida taqdim etildi va o'z davrining mashhur olim, ohun, fuzalolariga va madrasalarga tarqatildi. Bosmaxonalarda chop etilgan minglab toshbosma kitoblar qirq nomdan ziyod bo'lib, adabiy, badiiy, diniy

³⁴ Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар.) – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б. 64.

mazmunda edi. Xiva toshbosmasi haqida rus sharqshunoslaridan B. B. Bartol'd, G. N. Chabrov, E. K. Betger, o'zbek tarixchi olimlardan R. Mahmudova, M. Rustamov, A. Boboxonov, F. Ernazarov kabilar ma'lumotlar berib o'tganlar³⁵.

Ko'rilayotgan davrda Xiva xonligidagi ikki matbaa faoliyati o'rganildi. Birinchi matbaa Muhammad Rahimxon II Feruz davrida tashkil etilgan va u "Podshohi zamon tipolitografiyasi" deb nomlangan³⁶.

Vohadagi ikkinchi bosmaxona Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l)dagi S. V. Novikov matbaasidir. Bu matbaa ham o'zining tuzilishi va chop etgan mahsulotlari bilan boshqa kichik vaqtli matbuot bosmaxonalaridan farq qilmagan³⁷.

O'rta Osiyo tarixidagi yagona matbaa Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida tashkil etilgan "Podshohi zamon tipolitografiya"sidagi nashr jarayoniga to'xtalsak, nashr uchun tayyorlangan asar matni dastlab eski o'zbek yozuvida qo'lda qog'ozga tushunarli qilib ko'chirilgan.

Xiva toshbosmasining O'rta Osiyodagi boshqa toshbosmalardan farqi shuki, toshbosma Muhammad Rahimxon II Feruz saroyi qoshida ochilgan bo'lib, u asrlar davomida ko'z qorachig'iday asrab kelingan xalqning noyob madaniy merosi bo'lgan qo'lyozma asarlarni ko'paytirish bilan shug'ullangan.

1908-yil Xiva xonligida bo'lgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon va saroyning madaniyat ishlari mutasaddi vakillari bilan uchrashganini, Arkdagi va Tozabog'dagi xonning kutubxonalaridagi ajoyib kitob va qo'lyozmalar bilan yaqindan tanishib chiqqanini alohida ta'kidlaydi. A. N. Samoylovich ma'lumotiga ko'ra, xonning Tozabog'dagi kutubxonasida 200 ga yaqin qo'lyozma hamda Turkiston, Qozon, Usmonli turk, fors, hind nashrlariga oid ko'plab kitoblar mavjud bo'lgan. Bundan bilish mumkinki, xon kutubxonasida nafaqat Xiva litografiyasi nashrlari, balki boshqa xorij litografiya nashrlari ham joy olgan.

Matniyoz Devonbegi madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1871). Xon devonbegisi Matniyoz (Muhammad Niyoz) qurdirgan. Madrasa bir qavatli, to'g'ri to'rtburchak tarhli. Hovli atrofida hujralar joylashgan. Bosh tarzi ulkan

³⁵ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 36.

³⁶ Шерипов У. А. Хива хонлиги тарихи. (1511-1920 йй). Тарих фан. ном. дисс. – Урганч, 1999. –Б.161.

³⁷ Нуржонов К. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1992. –Б.25.

peshtoqli, uning yonlariga 3 tadan yoysimon ravoqlar ishlangan. Burchaklaridagi minoralar tepasi gumbazli mezanalar bilan yakunlangan. Kiraverishdagi yog'och o'ymakorligida bezatilgan eshik orqali miyonsaroyga kiriladi. Miyonsaroy gumbazi qalqonsimon bag'allarga tayangan. Miyonsaroy yonlarida hovli bilan o'zaro bog'langan darsxonalar joylashgan. Hovli atrofidagi hujralar oldi ravoqli. Janub tomonidagi peshtoq-gumbazli masjiddan ayvon sifatida foydalanilgan. Darsxona va masjid gumbazlari o'zaro kesishgan toqilar ustiga o'rnatilgan, hujralar balxi gumbazli. Bosh tarzi Xorazm me'morligiga xos uslubda bezatilgan. Yirik o'quv dargohi hisoblangan³⁸.

Muhammad Aminxon madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1852-1855). Muhammad Aminxon qurdirgan. Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan. Madrasa ikki qavatli. Birinchi qavatidagi hujralar dahlizli, ikkinchi qavatdagilar ayvonli. Bu uslub Xiva madrasalari me'morligida ilk bor shu binoda qo'llanilgan. Ayvonlarning qurilishi sodda, hovlining umumiy me'morligiga mos. Ikki qavatli ayvonlardagi qanoslar va qarama-qarshi qo'yilgan peshtoqlar sirkor parchinlar bilan naqshlangan. Hujralar tomi balxi gumbaz bilan berkitilgan. Sharqiy qanotidagi masjid va g'arbiy qanotidagi darsxonaning gumbazlari burchaklaridan chiqarilgan toqili qiya sath-bag'alga qo'yilgan. Peshtoqining 6 qirrali ko'rkam ravog'i ham sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Masjidning baland gumbazi peshtokidan ancha yuqori ko'tarilib turadi. Madrasaning baland va bezakdor peshtoqi o'ziga xos mayda ravoqchalarga bo'lingan, burchaklaridagi mezanali guldastalar binoga salobat va go'zallik bag'ishlaydi. Binoda Xiva me'morlik maktabiga xos uslublarning eng yaxshi namunalari qo'llangan. Bosh tarzidagi miyonsaroy 2 oshyonli, 5 gumbazli bo'g'imlarga ajratilgan. Yog'och o'ymakorligida ishlangan eshik va panjaralar noyob san'at asari hisoblanadi. Madrasa ta'mirlanib, mehmonxona uchun moslashtirilgan, o'tmishda yirik o'quv dargohi va shahar devonxonasi bo'lgan³⁹.

Nurullaboy saroyi – Xivadagi me'moriy yodgorlik. Asfandiyorxonning

³⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б.522.

³⁹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б .186.

sobiq rasmiy qabulxonasi (XX asr). Bu saroy-bog'ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o'g'li Asfandiyorxon uchun qurdirgan (Nurullaboy degan shaxsning bog'i o'rniga qurilgani uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi). Nurullaboy saroyi 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, madrasa, xizmatchilar uchun turar joy, bog', gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga janubdagi ariq ustiga qurilgan ko'prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar bor. Saroy to'g'ri to'rtburchak tarhli, 4 hovlili, qal'-aband devor bilan o'ralib, burjlar ishlangan. 3 hovlida 2 qavatli, janubiy-g'arbiy hovlida 1 qavatli xonalar joylashgan. Bosh tarzi darvozasi madrasa, turar joy va arzxona bilan o'zaro bog'langan. Saroy shimolidagi 2 hovli ayvonlarning tomi ikkinchi qavat uchun o'tish joyi vazifasini o'taydi. Katta hovli saroyning shimoliy-g'arbiy qismini egallagan. Hovlida quduq bor. Qabulxona saroyning shimoliy-sharqida, o'ziga xos evropacha uslubda qurilgan. Bosh tarzi janubga qaratilgan. 1 qavatli, 7 xonasi bor. Old va orqa tomoni ayvonli. Arzxona saroyning sharqida joylashgan. Tarhi "G" shaklida, janubiy qismi uch burchakli, shimol va g'arbga qaratilgan ayvonlari mavjud. Madrasa bosh tarzi sharqqa qaragan. Janubiy-sharqiy burchagida 4 ustunli 2 qavatli masjid, shimoliy-g'arbida ayvon, hovli atrofida darsxona va hujralar joylashgan. Tashqi devorlari va 4 burchagidagi guldastalar pishiq g'isht va koshin bilan bezatilgan⁴⁰.

Olloqulixon karvonsaroyi va timi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1832-33). To'g'ri to'rtburchak tarxli, burchaklariga guddasta – minoralar ishlangan. Karvonsaroyga shimoliy va janubiydagi peshtoq orqali kiriladi. Uning keng hovlisi va hovli atrofidagi 2 qavatli hujralar bir xil hajmda 105 tani tashkil qiladi. Hujralar hovli sahniga qaratilgan. Burchaklaridagi 8 ta hujralar gumbazi baland qilib ishlangan, ular eshik tepasidagi toba-don panjaralari orqali yoritiladi. Tomi balxi gumbazli. Xovliga kiriladigan yo'lak 2 tomondan peshtoq bilan chegaralangan. Peshtoq qanotlari ichida 2-qavatga olib chiqiladigan aylanma zinalar bor. Pastdagi xonalarda yuk saqlangan, yuqoridagilaridan mehmonxona sifatida foydalanilgan. Karvonsaroyning tashqi va ichki tuzilishida o'ziga xos tomonlar bor. Macalan, shu

⁴⁰ O'sha manba. – B. 422-423.

tipdagi binolarda ichkariga maxsus xonalar orqali aylanib o'tilsa, bu y erda ichkariga yuklar bilan 2 gumbaz ostidan to'g'ri o'tish mumkin. Hovli o'rtasi ot-aravaga mol yuklashga qulaylashtirilgan. Tim karvonsaroyga nisbatan keyinroq qurilgan. Karvonsaroyning bosh tarzi tim qurilishi (1835-1938)da tamoman o'zgartirilgan. Pastki qavatda ravoqlar asosi mustahkamlangan, 24 ta hujraning 2-qavati butunlay buzilgan va tim gumbazlarini o'rnatish uchun moslashtirilgan. Tim tarxi, 2 ta katta gumbaz (markazida va g'arbida), 2 qatorli 12 ta mayda gumbazlar karvonsaroy oldidagi katta gumbazli xonaga kelib taqalgan, xuddi shunday gumbazli xona timning g'arbida ham bor. Tim ichkarisi gumbazlardagi tuynuklar orqali yoritilgan. Timda savdo rastalari joylashgan. Gumbazlarni qurishda ustalar binoga mos (to'rtburchak, chorsi, olti qirrali shakllarda) qurilma asosini topa olganlar.

Olloqulixon madrasasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1834-35). Madrasa qurilishi Ichan qal'aning yaxlit ansambl bo'lib shakllanish tarixi bilan bog'liq. O'rta Osiyo me'morligida keng tarqalgan qo'shmadrasa uslubida, Olloqulixon timi, Xo'jamberdibiy madrasasi, Polvon darvoza bilan o'zaro bog'langan. Olloqulixon timi sun'iy tepalik ustiga qurilgan, shu tufayli qo'shni binolardan ancha baland ko'rinadi. Madrasi to'g'ri to'rtburchak tarhli, peshtog'i g'arbga qaragan. Bosh tarzini miyon-saroy, masjid va darsxona hamda 2 qavatli hujralar egallagan. Eshikdagi yozuvda binoning qurilgan sanasi saqlangan. Hovli tomoni o'ziga xos, undagi 2 qavatli qator hujralar Polvon darvozaning kichik gumbazlari ustiga va qisman tim gumbazlari chekkasiga joylashgan. Masjid va darsxona tuzilishi bir xil. Usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Yirik o'quv dargohi hisoblangan⁴¹.

Toshhovli, Olloqulixon saroyi – Xivadagi me'moriy yodgorlik. Olloqulixon qurdirgan (1830-1838). Xalq ustalari Nurmuhammad, usta Toji va usta Qalandar Xivakiy tomonidan bunyod etilgan. Toshhovli uch hovli, 111 ta xonadan iborat: Arz hovli (darvozasi g'arbga), ishrat hovli, haram. Xorazm mahalliy turar joy me'morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo'rg'on-hovli ko'rinishida

⁴¹ O'sha manba. – B. 511.

bo'lganligi uchun toshhovli deb nomlangan. Har bir hovlida alohida xizmatchilar xonasi, xo'jalik xonalari, otxona bo'lgan. Hovlilarda ayvonlar o'ziga xos uslubda joylashgan. Haramning janubida 2 qavatli bino oldiga baland qilib 1 ustunli ayvon ishlangan, arz hovli va ishrat hovlidagi binoning faqat 2-qavatida 1 ustunli, panjara to'siqli ayvon bor. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o'rnatilib mehmonlar kutilgan. Toshhovlining tashqi tarzi bezaksiz, yaxlit devorli. Hovli atrofidagi ayvon va xonalar milliy me'morlik an'-analari asosida pardoizlangan. Devordagi ustungo'shalar oralig'iga namoyonlar ishlanib, choksiz ko'k va oq koshin qoplab, girih parchinlardan naqsh hosil qilib terilgan. Ishrat hovli va arz hovli devorlari namoyonlarga ajratilib, ko'k, oq va havo rang koshindan gilam nusxa mujassamot yaratilgan. Ayvon devorlaridagi girih va islamiy naqshlar orasidagi doira shakllar ichida arabiy yozuvlar uchraydi. Marmar poyustun va o'ymakori yog'och ustunlardagi doira shakllarda Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid she'rlari, xon ayvonidagi sharqiy poyustunda 1832 yil va ishrat hovli katta ayvon poyustunida, arz hovli katta ayvon bezaklari orasida 1838 yil hamda usta Abdulla jin nomi saqlangan. Toshhovli (haram qismi)da Xiva "Ichon qal'a" davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasining hunarmandchilik muzeyi ekspozitsiyasi joylashgan.

Yosh xivaliklar – Xiva xonligida jadidlar tashkil qilgan partiya (firqa) (1914-1921). O'z safida milliy ziyolilar, hunarmand, dehqon, savdogarlar, islom ulamolari va ayrim davlat amaldorlarini birlashtirgan. 1914 yil avgustda Yosh xivaliklar partiyasiga Polvonniyoz hoji Yusupov asos soldi. Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Husaynbek devonbegi Matmurodov, Muhammadyorxo'ja Abdullaev partiyaning faollari edi. Partiyaning e'lon qilingan dasturida xon hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish, xalqni ma'rifatli qilish mo'ljallangan. Xiva xonligidagi 1916 yil qo'zg'olonida faol qatnashgan Yosh xivaliklarning rahbarlaridan biri qozikalon Boboovun Salimov (1874-1929)

qo'zg'olonchilar faoliyatini yashirin ravishda boshqardi⁴². 1917 yil fevral inqilobi Yosh xivaliklar faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, ular ochiq kurash yo'liga o'tdi. 1917 yil 5 aprelda Xiva xoni Asfandiyorxon Yosh xivaliklar taqdim etgan manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifestda yangi usul maktablari ochilishi, mamlakatda temir yo'l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasini nazorat ostiga olinishi, barcha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta'minlanishi, butun aholining shariat oldida tengligi ta'kidlangan edi. Islohotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun 30 vakildan iborat muvaqqat qo'mita tashkil topdi. 8 aprelda mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida Majlis (raisi – Boboxxun Salimov) va Nozirlar Kengashi (raisi Husaynbek devonbegi Matmurodov) tuzildi. P. Yusupov (1861-1936)ga Rossiya hukumati va rus qo'shinlari bilan munosabatlarni barqarorlashtirish vazifasi yuklatildi. Muvaqqat qo'mita tarkibiga keyinchalik yana 19 kishi, shuningdek, 7 turkman kiritildi. Yosh xivaliklar Xiva xonligida hokimiyatni boshqaruvchi hukmron kuchga aylandi. 1917 yil mayda Majlis raisi Boboxxun Salimov boshchiligidagi delegatsiya Muvaqqat hukumat vakillari bilan muzokara o'tkazish uchun Toshkentga jo'nadi. Asfandiyorxon Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili general Xo'ja Mirbadalov (millati tatar) boshchiligidagi harbiy kuchlarga tayanib, iyunda Majlisni tarqatib yubordi. Xon o'ziga ma'qul kishilardan yangi tarkibdagi Majlis (raisi – Ortiq Oxun) va Nozirlar Kengashi (raisi Ishoqxo'ja Xo'jaev)ni tayinladi, Yosh xivaliklardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. H. Matmurodov boshchiligidagi sobiq Majlisning 17 a'zosi qamoqqa olindi, Boboxxun Salimov ustidan kuchli nazorat o'rnatildi, Yosh xivaliklar partiyasining barcha a'zolari kofir, deb e'lon qilindi. 1917 yil sentyabrda Xivaga polkovnik Zaytsev katta kazak otryadi bilan etib keldi. 21 noyabrda Yosh xivaliklar ustidan “qozilarning shariat sudi” o'tkazildi. 1917 yil noyabrda Asfandiyorxon rus kazaklari yordamida Majlisni butunlay tugatdi. Xonning istibdod tuzumi bilan kurashda mag'lubiyatga uchragan Yosh xivaliklar mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1917 yil noyabr-

⁴² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000. –Б.113.

dekabrda P. Yusupov, N. Sholikorov (1881-1938) Toshkentga, mulla Jumaniyoz Sultonmurodov – Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l)ga etib borishdi. Yosh xivaliklar partiyasining boshqa etakchilari Husaynbek Matmurodov, Ishoqxo'ja Xo'jaev, Abdusalom Hoji Islomxo'jaev, Hoji Avazberdi Eshonov xon buyrug'i bilan qatl qilindi (1918 yil 18 may)⁴³.

Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi 1920 yil 2 fevralda Xivada tuzilgan. Unga To'rtko'ldagi Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasining boshlig'i Jumaniyoz Sultonmurodov – rais, Majlisning sobiq raisi Bobooxun Salimov, ulamolar vakili Odamoxun Ortiqov, yirik savdogar Matpanoboy Madrahimov, turkmanlar vakillari Mulla O'roz Xo'jamuhamedov va Mulla Navro'z Ro'ziboev a'zo bo'ldi. 9 aprelda Muvaqqat inqilobiy qo'mita ishini yaxshilash uchun uning tarkibida 10 kishidan iborat dastlabki xalq hukumati – Nozirlar Sho'rosi tashkil qilindi. Kundalik masalalarni hal qilish uchun Jumaniyoz Sultonmurodov (rais), Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimovdan iborat hay'at saylandi. 1920 yil 26-30 aprelda Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikam (XXSR) tashkil topdi. Yosh xivaliklar dasturi qurultoyda qabul etilgan muvaqqat konstitutsiyaga asos qilib olindi⁴⁴. Unda Xiva xonligi tugatilganligi va Xorazm Xalq Respublikasi tuzilganligi e'lon etildi. Qurultoyda 15 kishidan iborat respublika xukumat – Xalq Nozirlari Sho'rosi tuzildi. Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi xukumat tarkibiga Jumaniyoz Sultonmurodov (raisning 1-muovini), Bobooxun Salimov (adliya), Bekjon Rahmonov (maorif), Eshchon-qori Jabborqulov (xalq xo'jaligi), O'roz Xo'jamuhamedov (tashqi ishlar), Navro'z Ro'ziboev (hukumat kotibi), Qo'shmamedxon Sapiev (raisning 2-muovini), G'ulomalixon Bahodir (ijtimoiy ta'minot), Shomurod Baxshi (sog'liqni saqlash), Muhammadpanoboy Abdullaev (moliya), Xudoybergan Devonov (oliy mufattish-nazorat), Rizo Shokirov (harbiy), Hakim Bobojonov (ziroat-dehqonchilik), Nazir Sholikorov (ichki ishlar) nozir sifatida kiritildi. Nozirlarning aksariyati jadidlardan iborat bo'lgan va shu sababli hukumat Yosh xivaliklar hukumati deb yuritilgan.

⁴³ Маткаримов М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иктисоди. –Урганч, 1993. –Б.49.

⁴⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000. –Б.121.

Yosh xivaliklar mamlakatda xonlikdan qolgan asoratlarni tugatish, respublikada demokratik tuzumni qaror toptirish, mustaqil Xorazm davlatini barpo qilish uchun kurashdi. Rossiya rasmiy doiralari, Turkkomissiya va Turk-front vakillari mustaqil siyosat yuritishga intilayotgan Yosh xivaliklar hukumatini badnom qilish uchun jon-jaxdi bilan harakat qildi. Sho'rolar davlatining qurolli ig'vogarliklariga qaramay, Yosh xivaliklar hukumati qariyb bir yil yashadi. 1921 yil 6 martda qizil askarlar Xivada 2-marta davlat to'ntarishi yasab, Yosh xivaliklar hukumatini ag'darib tashladi. Bolsheviklar xalq nozirlarini qamoqqa olib, ko'pchiligini otib tashladi. Ayrim nozirlar Junaidxon va istiqlolchilar safiga qo'shildi, ba'zilari chet ellarga o'tib ketdi. Yosh xivaliklarning bir qismi keyinchalik afv qilindi va ular Xorazmdagi sho'ro davlati qurilishida faol ishtirok etdi (1923 yil oktabrgacha). Ularning aksariyat qismi 30-yillar qatag'onlarida yosh buxoroliklar singari halok bo'ldi⁴⁵.

Yosh xivaliklar qo'mitasi – 1918 yil boshlarida Toshkentda tuzildi (raisi – Polvonniyoz Yusupov). Yosh xivaliklar taktik maqsadlarni ko'zlab, bolsheviklar bilan yaqinlashdi. To'rtko'ldagi Yosh xivaliklardan bir guruh inqilobchilar bilan ajralib, 1919 yil boshida kommunistik guruh (fraktsiya) tuzganligini e'lon qildi (raisi – Jumaniyoz Sultonmurodov)⁴⁶. Yosh xivaliklar partiyasiga ko'plab a'zolar kelib qo'shildi. Uning yangi dasturi qabul qilinib, unda demokratik islohotlar dasturi bayon etildi. Xiva xoni, to'ralar va beklarga qarashli butun mol-mulkni xalqqa berish, katta boylarning erlarini kambag'allarga taqsimlash, bepul shifoxonalar va maktablar ochish, yo'llar va ko'priklar qurish, siyosiy erkin-lik, milliy tengquqlilik, xonlik tuzumini ag'darib tashlab, demokratik xalq hokimiyati – respublikani barpo qilish ko'zda tutildi. Rossiya va Turkistonning bolshevik rahbarlari Xiva xonligidagi barcha muxolif kuchlarni jipslashtirishga zo'r berib intildi. 1919 yil noyabrda Yosh xivaliklar, To'rtko'ldagi inqilobchi kommunistlar guruhi hamda Qo'shmamedxon Sapiev va G'ulomalixon Bahodir boshchiligidagi turkman qabilalari Xiva xoni Sayd Abdullaxon va turkman

⁴⁵ Ражабов Қ. Қ., Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар. – Тошкент, 2000. –Б.46.

⁴⁶ Юсупов Полвонниёз Ҳожи. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). –Урганч, 1999. –Б.89.

yovmutlarining etakchisi Junaidxonga qarshi kurash boshlash uchun o'zaro ittifoq tuzib, Xivani egallash uchun qizil askarlarni yordamga chaqirdi. 1919 yil noyabr – 1920 yil yanvar oylaridagi keskin janglar natijasida Turkiston fronti Amudaryo (Xiva) guruhining qo'shinlari (qo'mondon N. M. Shcherbakov, siyosiy rahbar G. B. Skalov) 1920 yil 1 fevralda xonlik poytaxti Xivani bosib oldi. Xiva xoni Sayd Abullaxon taxtdan voz kechdi. Junaidxon janglar bilan Qoraqumga chekindi.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida faoliyat yuritgan davlat muassasalar o'zlarining vazifalari va faoliyatlari bilan ajralib turgan. Ko'plab muassasalar Qo'qon va Xiva xonligida ham bir xil vazifa bajarganligi, yoki O'zbekiston xududida xukm surgan ayrim sulolar davrida ham faoliyat yuritganligini ko'rish mumkin.

XULOSA

XIX asrning boshlarida Xiva xonligida yangi sulola – Qo'ng'irotlar o'z hukumatini o'rnatib, mamlakatda XX asrning 20- yillarigacha boshqarganlar. Bu davr nafaqat Xiva, balki O'rta Osiyo davlatlari uchun ham o'ta murakkab va siyosiy voqealarga boy bo'lgan davr hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi yakuniga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'zbekiston hududida davlat muassasalarining tashkil topishi va ularning faoliyatini alohida o'rganish O'zbekiston tarixi, Xiva xonligi tarixi, O'rta Osiyo va O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi fanlaridan muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

2. Xivaning shu davrdagi tarixi o'rganishda ko'rish mumkinki, Qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud ishlarini boshqaruvchi oliy hokimiyat tepasida katta er egalarining vakili sifatida xon turgan. Xon huzurida rasmiy maslahatchi va mashvaratchi bir kengash tarzida oqsoqollarning oliy kengashi faoliyat yuritganini ko'rish mumkin.

3. Saroy va xonlik boshqaruvida faoliyat yuritgan davlat muassasalari faoliyatlari izchillik bilan o'rganishga yordam beradi;

4. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi rasmiy faoliyat yuritgan davlat muassasalari tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Xiva xonligi davlat muassasalari faoliyatlari o'rganish orqali ularning har biriga tavsif berilib, boshqa davrlarda yoki Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidagi faoliyatlariga tarixiy nuqtai-nazardan solishtirildi.

6. Xiva xonligi davlat muassasalari ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni, vazifasi va tarixiga e'tibor qaratildi.

7. Xiva xonligi davlat muassasalarining davlat boshqaruv organlari va ularning tarkibi, turli yillarda egallab turgan mansablari to'g'risidagi ma'lumotlar mujassamlashtirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar orqali arxiv fondlarining manbaviy ahamiyati nechog'lik muhimligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xiva xonligi davlat muassasalari faoliyatlari, ularni tashkil qilinishi masalalari, ularning vakolatlari kabi masalalar

ilmiy muomalaga kiritilishida arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar, bu davrga oid manbalarni – Rossiya bosqini davriga oid, sovet mustamlakasi davriga oid, mustaqillik davriga oid manbalar orqali biz o'sha davrdagi boshqaruv tizimining qay darajada tashkil qilinganligini, undagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish orqali ulardan tarixiy saboqlar chiqarishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - 326 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - 32 б.
- 1.3. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. - 445 б.

II. Umumiy adabiyotlar:

- 2.1. Abdurahimova N. A. va boshq. Davlat muassasalari tarixi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 128.
- 2.2. Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар.) – Тошкент: Ўзбекистон, 1997;
- 2.3. Абдурахимова Н. А., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. - 240 б.
- 2.4. Алимова Д. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй.). – Тошкент, 2000.
- 2.5. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент, 1994.
- 2.6. Бобобеков Ҳ., Каримов Ш., Содиков М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Фан, 2007.
- 2.7. Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994;
- 2.8. Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б. 547.
- 2.9. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - 72 б.
- 2.10. Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалар луғати. –Тошкент:

Akademnashr, 2013. –Б. 292-293.

2.11. Йўлдошев М. Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент, 1959. –Б. 259

2.12. Қобулов Н. Хоразм адабий муҳити. – Урганч, 1992;

2.13. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. – Тошкент, 1989;

2.14. Қўшчанов О., Полвонов Н. Ўзбекистонда ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (Хоразм мисолида 1900-1924). – Тошкент: Университет, 2007;

2.15. Маннонов Б. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати. – Тошкент: Фан, 1997;

2.16. Маткаримов М. Хоразм республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. –Урганч, 1993. –Б.49.

2.17. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент, 1997. –Б.56.

2.18. Нуржонов К. Хоразм тарихидан лавҳалар. – Урганч, 1992;

2.19. Ражабов Қ. К., Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар. – Тошкент, 2000. –Б.46.

2.20. Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз - шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991;

2.21. Сагдуллаев А., Аминов Б. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. – Тошкент: Академия, 2000. - 272 б.

2.22. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедия” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б. 445.

2.23. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б.522.

2.24. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. –Б .186

2.25. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон ФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш” ҳақидаги Қарори //

Халқ сўзи, 1998, 20 июль.

2.26. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000.

2.27. Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. –Тошкент, 2005.

2.28. Хива – 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. (Хиванинг 2500 йиллигига бағишланган кўшма илмий-назарий анжуман материаллари). – Урганч, 1997;

2.29. Хива минг гумбаз шаҳри. – Тошкент: Шарқ, 1997;

2.30. Хоразм тарихи. 1- жилд. Муаллифлар жамоаси. Масъул муҳаррир М. Матниёзов. – Урганч, 1997;

2.31. Худойберганов К. Хива – 2500. Хива хонлари шажараси. – Хива, 1996;

2.32. Ҳасаний С. Хоразм маърифати - олам кўзгуси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996;

2.33. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

2.34. Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). – Урганч: Хоразм, 2000.

2.35. Юсупов Полвонниёз Ҳожи. Ёш хиваликлар тарихи (Хотиралар). – Урганч, 1999. –Б.89.

III. Dissertasiya va avtoreferatlar:

3.1. Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошида Хива холигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент, 2002. -180 б.

3.2. Шерипов У. А. Хива хонлиги тарихи. (1511-1920 йй). Тарих фан. ном. дисс. – Урганч, 1999. -174 б.